

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

MUXAMEDJANOVA SHAHBORA KAMOLOVNA

**XITOIY TILIDA HARAKAT YO'NALISHI FE'LLARINING
LEKSIK-SEMANTIK VA FUNKSIONAL TAHLILI**

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2022

UO‘K: 811.581:81’3
КБК: 81.2-3 (5 Кит)
М-92

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation on doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Muxamedjanova Shahbora Kamolovna

Хитой тилда ҳаракат yo‘nalishi fe’llarining leksik-semantik va funksional
tahlili..... 3

Мухамеджанова Шахбора Камоловна

Лексико-семантический и функциональный анализ глаголов
направления движения в китайском языке..... 27

Mukhamedjanova Shahbora Kamolovna

Lexical-semantic and functional analysis of verbs of motion direction in
Chinese 55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 60

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

MUXAMEDJANOVA SHAHBORA KAMOLOVNA

**XITOIY TILIDA HARAKAT YO'NALISHI FE'LLARINING
LEKSIK-SEMANTIK VA FUNKSIONAL TAHLILI**

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2022

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Fil.1292 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.tsuos.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimov Akramjon Abilyevich
filologiya fanlar nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Dadaboyev Hamidulla Aripovich
filologiya fanlari doktori, professor

Ismatullayeva Nargiza Rasuljanovna
filologiya fanlari bo‘yich falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2022-yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent, Mirobod tumani, Shahrizabz ko‘chasi, 16-uy. Tel.: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrizabz ko‘chasi, 16-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2022-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2022-yil «___» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.M.Mannonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
filol.f.d., professor

R.A.Alimuxamedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filol.f.d., dotsent

Sh.R.Usmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Ma'lumki, jahon tilshunosligining bugungi taraqqiyot bosqichida til tizimi va inson lisoniy faoliyati mexanizmini til egasi bo'lgan shaxs, uning lisoniy ongi va tafakkuri, ruhiyati, nutqiy vaziyat, ijtimoiy muhit, xalq madaniyati kabi omillar bilan bog'liqlikda o'rganishga e'tibor kuchaymoqda. So'nggi yillarda fe'l asosli gaplarni fe'llarning grammatik tabiati, semantikasi, pragmatik imkoniyati bilan bog'liq holda o'rganishda yangicha yondashuvlar kuzatilmoqda.

Dunyo tilshunosligida xitoy tilidagi harakat yo'nalishini ifodalovchi vositalar kategoriya sifatida ajratib tadqiq qilinmagan, harakat yo'nalishi vositalari va ularning ma'nosi struktur jihatdan o'rganilmagan. Ayni chog'da, harakat yo'nalishi vositalari alohida kategoriya sifatida ajratilmasa-da, harakatning nutqda voqelanishiga doir tadqiqotlar bor. Xitoy tilidagi harakat yo'nalishi fe'llarini belgilash mezonlari, ularning tarkibi va semantikasi, yo'nalish modifikatorlarining qo'llanilish imkoniyatlari¹ masalalariga doir ilmiy yondashuvlarda yakdillik kuzatilmaydi. Harakat yo'nalishi fe'llari xitoy tili lug'at tarkibining muhim qismini tashkil etishiga qaramasdan, uning tizimi va semantik ko'lami tadqiqida qator bo'shliqlar mavjud. Xususan, xitoy tilshunosligida harakat yo'nalishi fe'llari tasnifi qamrov doirasining torligi sababli ushbu leksik-semantik guruhning lisoniy tabiatini anglash mushkul masala bo'lib qolmoqda.

Hozirga qadar xitoyshunoslikda xitoy tilidagi harakat yo'nalishi fe'llari umumiy masalalar doirasida yoki qiyosiy aspektda o'rganib kelingan. Mazkur tadqiqot xitoy tili harakat yo'nalishi fe'llarini alohida o'rganishga yo'naltirilgan birinchi ishdir. Rejalashtirilgan mavzuni monografik planda o'rganish, xitoy tilidagi harakat yo'nalishi fe'llarining leksik-semantik va funksional xususiyatlarini aniqlash zarurati tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Zero, turli tillarning o'ziga xos an'ana va qonuniyatlarini ochib berish, tillararo muqobillarni aniqlash, farq va o'xshashliklarni o'rganish xorijiy tilni o'zlashtirayotganlar nutqida o'rganilayotgan tilning qulay va samarali jihatlarini aniq ko'rsatish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-

¹ 现代汉语语法讲话. / 丁声树、吕叔湘、李荣、孙德宣、管燮初、傅婧、黄盛璋、陈治文等人. – 北京: 商务印书馆出版, 1961. – 228 页; Cheng-hui Liu. The grammaticalization of the directional verb lái: A construction grammar approach // Newest Trends in the Study of Grammaticalization and Lexicalization in Chinese / Edited by Janet Zhiquan Xing. – Berlin, Boston: De Gruyter Mouton, 2012. – P. 87-88; Задоевко Т.П., Хуан Шуин. Начальный курс китайского языка. Ч.2. Изд. 2-е, стер. – М.: Муравей, 2004. – С. 246; Тянь Аошун. Проблема скрытой грамматики: Синтаксис, семантика и прагматика языка изолирующего строя (на материале китайского языка). – М.: Языки славянской культуры, 2002. – С. 242.

tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xitoy tilidagi harakat yo'nalishi fe'llari xitoy tilshunoslari Li Dzinsi, Lyuy Shusyan, Vang Li, Djan Djigun, Din Shenshu, Dju Desi, Xu Yuysu, Fan Syao, Sin Fuyi, Luy Yuexua², rus xitoyshunosligida T.P. Zadoyenko, Xuan Shuin, V.I. Gorelov, S.Y. Yaxontov, A.A. Dragunov, Tan Aoshuan, Guan Lili, A.A. Shaxayeva³ kabi olimlar tomonidan turli darajada o'rganilgan. Tadqiqotlarda harakat yo'nalishi fe'llari mustaqil fe'l, ko'makchi fe'l, dinamik so'z, yordamchi element, suffiks sifatida qayd etilgan. Aksariyat ishlarda bularning gapdagi o'rniga ko'ra mustaqil va ko'makchi fe'l vazifalari ajratilgan. Xitoy tilshunoslarining asarlarida ko'makchi fe'l vazifasi uchun 趋向补语 *qūxiàng bǔyǔ* yo'nalish modifikatori termini ishlatiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, XX asr so'ngiga qadar bajarilgan izlanishlarda harakat yo'nalishi fe'llari, asosan, xitoy tili grammatikasi doirasida o'rganilgan.

Bu sohada 2000-yildan keyin amalga oshirilgan tadqiqotlardan Tan Aoshuanning monografiyasi⁴ ahamiyatga molik. Asarda xitoy tili misolida izolyativ til grammatikasining asosiy kategoriyalari tadqiq qilinib, fe'l va fe'l kategoriyalari bo'limida fe'l predikatlarining semantik turlari, yo'nalish hamda natija morfemalari turli funksional uslubga xos til materiallari asosida tahlil qilingan. Monografiyada, shuningdek, xitoy tili grammatikasining muammoli masalalari yechimiga doir takliflar berilgan.

² 黎锦熙. 新著国语法. 北京: 商务印书馆出版, 1924. – 327 页.; 吕叔湘. 中国文法要略. – 北京: 商务印书馆出版, 1982. – 681 页.; 王力. 中国现代语法. – 北京: 中华书局, 1956. – 464 页.; 张志军 Чжан Чжицзюнь. Сопоставительное исследование русского языка с китайским в аспекте аспектуальности // 语言-文化-交际. 国际学术会议论文集. / 主编 王仰正, 王永. – 哈尔滨: 黑龙江人民出版社, 2007. – 415 页 (106-116); 现代汉语语法讲话. / 丁声树、吕叔湘、李荣、孙德宣、管燮初、傅婧、黄盛璋、陈治文等人. – 北京: 商务印书馆出版, 1961. – 228 页.; 株德熙. 语法讲义. – 北京: 商务印书馆出版, 2009. – 页 231; 胡裕树, 范晓. 动词研究. – 开封: 河南大学出版社, 1995. – 422 页.; 邢福义. 现代汉语. – 高等教育出版社, 1993. – 491 页.; 刘月华, 陈贤纯, 张兰欣等. 趋向补语通释. – 北京: 北京语言大学出版社, 1998. – 704 页.

³ Задоевко Т.П., Хуан Шуин. Начальный курс китайского языка. Ч.2. Изд. 2-е, стер. – М.: Муравей, 2004; Горелов В.И. Теоретическая грамматика китайского языка. – М.: Просвещение, 1989. – 318 с.; Яхонтов С.Е. Категория глагола в китайском языке. – Л., 1957. – 181 с.; Драгунов А.А. Исследования по грамматике современного китайского языка. Т.1. Части речи. – М.-Л., 1952. – 231 с.; Тань Аошуан. Проблема скрытой грамматики: Синтаксис, семантика и прагматика языка изолирующего строя (на материале китайского языка). – М.: Языки славянской культуры, 2002. – 896 с.; Гуан Лили. Глаголы движения в русском и китайском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Бишкек, 2012. – 22 с.; Шахаева А.А. Типология глаголов направления движения в разноструктурных языках (на материале бурятского и китайского языков): Дис. ... канд. филол. наук. – Улан-Удэ, 2014. – 199 с.

⁴ Тань Аошуан. Проблема скрытой грамматики: Синтаксис, семантика и прагматика языка изолирующего строя (на материале китайского языка). – М.: Языки славянской культуры, 2002. – 896 с.

Guan Lili⁵ hamda Du Xundzyun⁶ning dissertatsiyalarida xitoy va rus tillaridagi harakat fe'llari, A.A. Shaxayevaning⁷ dissertatsiyasida esa buryat va xitoy tillaridagi harakat yo'nalishi fe'llari semantikasi chog'ishtirma planda tadqiq etilgan. Mazkur ishlarda harakat yo'nalishi fe'llari orasida semantik jihatdan o'xshashlik va farqlar asoslangan. Shuningdek, A.A. Shaxayeva tomonidan fe'llarning semantikasi va polifunksionalligi asosida buryat va xitoy tillarida harakat yo'nalish fe'llari leksik-semantik guruhini ajratish tamoyillari ishlab chiqilgan.

O'zbek tilshunosligida fe'llar, ularning ma'nosi, gapdagi o'rni, valentligiga doir bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, o'zbek tilidagi fe'llarning grammatik xususiyatlari A. G'ulomov, S. Mutallibov, A. Hojiyev, A. Sulaymonov, H. Yusufxo'jayeva, M. Sodiqova, M. A'lamova⁸, fe'llarning semantik maydonlari I. Qo'chqortoyev⁹, holat fe'llarining valentligi R. Rasulov¹⁰, harakat fe'llarining semantik va valentlik xususiyatlari S. Muhamedovaning¹¹ ishlarida o'rganilgan. Jumladan, M. Sodiqovanning doktorlik dissertatsiyasida fe'llarning semantik-stilistik xususiyatlari harakat, holat va munosabat bildiruvchi uchta yirik semantik guruh doirasida tadqiq etilgan¹². S. Muhamedova tadqiqotida harakat fe'llarining semantik maydoni belgilanib, fe'l-leksemalarning semantik tasnifi amalga oshirilgan. Shuningdek, ishda valentlik nazariyasining taraqqiyot bosqichlari aniqlanib, o'zbek tilida valentlikning ko'rinishlari masalasiga ham aniqlik kiritilgan¹³. Mazkur ishlarda harakat fe'llari (yurish-harakat fe'llari)ning guruhlarga ajratilishida yo'nalish ma'nosiga egaligiga e'tibor qaratilgan¹⁴.

Ma'lumki, so'nggi chorak asr mobaynida chet elliklarga xitoy tilini o'qitish dunyoda, shu jumladan, Xitoyning o'zida ham keng quloch yoydi. Turli grammatik hodisalar qatori harakat yo'nalishi fe'llarini o'qitishda xitoy tilining o'ziga xos xususiyatlari tufayli muammolar tug'iladi. Buning natijasi o'laroq, internet sahifalarida harakat yo'nalishining ifodalanishiga doir kichik hajmdagi maqolalar

⁵ Гуан Лили. Глаголы движения в русском и китайском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Бишкек, 2012. – 22 с.

⁶ Ду Хунцзюнь. Система приставочных глаголов движения в русском языке в сопоставлении с китайским языком: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 2010. – 33 с.

⁷ Шахаева А.А. Типология глаголов направления движения в разноструктурных языках (на материале бурятского и китайского языков): Дис. ... канд. филол. наук. – Улан-Удэ, 2014. – 199 с.

⁸ Гуломов А.Ф. Фейл. – Тошкент: Фан, 1954. – 88 б.; Муталибов С. XI аср ёзма ёдгорликлариди феъл категорияси. – Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1955. – 160 б.; Ҳожиёв А., Сулаймонов А. Феъл замонлари. – Тошкент: Фан, 1962. – 168 б.; Ҳожиёв А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. – Тошкент: Фан, 1966. – 259 б.; Ҳожиёв А. Тўликсиз феъл. – Тошкент: Фан, 1970. – 262 б.; Ҳожиёв А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – 192 б.; Юсуфхўжаева Ҳ. Ўзбек тили изоҳли луғатида феъл формаларининг лексикографик таҳлилига доир: Филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент, 1975.; Содиқова М. Ҳозирги ўзбек адабий тилида феъл стилистикаси (семантик аспектда): Филол. фан. докт. ... дис. – Тошкент, 1991. – 288 б.; Аъламова М. Ўзбек тилидаги феълларда нисбат категорияси. – Тошкент: Фан, 1992. – 141 б.

⁹ Кучкартаев И.К. Валентный анализ глаголов речи в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1977. – 100 б.

¹⁰ Расулов Р. Глаголы состояния в узбекском языке и их валентность: Дис. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1989. – 363 с.

¹¹ Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида йўналма ҳаракат феълларининг предикативлиги ва валентлиги: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, 1999. – 22 б.; Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги: Филол. фан. докт. ... дис. – Тошкент, 2007. – 325 б.

¹² Содиқова М. Ҳозирги ўзбек адабий тилида феъл стилистикаси (семантик аспектда): Филол. фан. докт. ... дис. – Тошкент, 1991. – 288 б.

¹³ Муҳамедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фан. докт. ... дис. – Тошкент, 2007. – Б. 32-58.

¹⁴ Ko'rsatilgan dissertatsiya. – B.49.

kuzatiladi¹⁵. Biroq bu ishlarda harakat yo‘nalishi fe’llari tizimli tahlil qilinmagan. Hozirgi kunga qadar xitoy tilida mazkur leksik-semantik guruhning tasnifi va tarkibi bo‘yicha tilshunoslar tomonidan yagona to‘xtamga kelinmagan. Mavjud kemptikni ma’lum darajada bartaraf etishga mo‘ljallangan ushbu tadqiqot shu nuqtai nazardan dolzarb va yangidir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Xorijiy Sharq mamlakatlari tillarini o‘rganish va tilshunoslikning nazariy masalalari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hozirgi xitoy tilidagi harakat yo‘nalishi fe’llarining tarkibi, semantikasi va funksional xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

xitoy tilida harakat yo‘nalishi fe’llari tarkibini belgilash mezonlarining grammatik asoslarini aniqlash;

来 [lái] va 去 [qù] harakat yo‘nalishi fe’llarining leksik-semantik va funksional xususiyatlarini o‘rganish;

harakat yo‘nalishi fe’llari semantikasini belgilashda *makon, figura, so‘zlovchi va tinglovchi* omilini asoslash;

进 [jìn] guruhi fe’llari semantikasini tahlil qilish hamda fe’l-yo‘nalish modellari tadqiqi asosida modifikatorlarning semantik imkoniyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti hozirgi xitoy tilidagi harakat yo‘nalishi fe’llari hisoblanadi.

Tadqiqotga **manba** sifatida 2000-yildan keyingi zamonaviy xitoy nasri¹⁶ materiallaridan tanlangan misollar kartotekasidan foydalanildi. Shuningdek, harakat yo‘nalishi fe’llarining leksik-semantik xususiyatlarini yoritishda Luy Shusianning 《现代汉语八百词》 (Hozirgi xitoy tilida sakkiz yuz so‘z) (北京: 商务印书馆出版社, 1999) ilmiy asariga ham murojaat qilindi.

¹⁵ Калинин В.Г. Средства выражения значений китайского дополнения направления в русском языке и переводном тексте (сравнительно-сопоставительное статистическое исследование) // Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2016. Том 14, № 1. – С. 12-30; Ван Сюянь. Локативы как ведущий способ выражения пространственных отношений в современном китайском языке // Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2009. Том 7, выпуск 2. – С. 74-85; Кошкин А.П. Некоторые морфологические и синтаксические особенности предлогов пространственных отношений китайского языка // Вестник Челябинского государственного университета. 2012. № 28 (282). Филология. Искусствоведения. Вып. 70. – С. 95-100; Шахаева А.А. Эгоцентричность семантики китайского глагола направленного движения 去. // Вестник МГЛУ. Гуманитарные науки. Вып. 8 (837). 2020. – С. 139-149.

¹⁶ 王安忆. 老康回来 (王安忆短篇小说系列). – 上海: 上海文艺出版社, 2015. – 341 页. (Vang Ani. Lao Kangning qaytishi (Vang Anining qisqa hikoyalar to‘plami) – Shanghai: Shanghai adabiyot va san’at nashriyoti, 2015. – 341 b.); 王蒙. 组织部来了个年轻人 (短篇小说1). – 北京: 人民文学出版社, 2003. – 408 页. (Van Men. Tashkilot bo‘limiga bir yigit keldi (1-hikoya). – Pekin: Xalq adabiyoti nashriyoti, 2003. – 408 b.); 王小波. 王小波全集. 第八卷. – 昆明: 云南人民出版社, 2007. – 312 页. (Vang Siaobo. Vang Siaoboning to‘liq asarlari. 8-jild. – Kunming: Yunnan xalq nashriyoti, 2007. – 312 b.); 赵光明. 帕米尔远山的雪. – 乌鲁木齐: 新疆美术摄影出版社、新疆电子音像出版社, 2009. – 140 页. (Chjao Guangmin. Uzoq Pomir tog‘laridagi qor. – Urumchi: Shinjon tasviriy san’at fotosuratlar nashriyoti, Shinjon elektron audio va video nashriyoti, 2009. – 140 b.); 康玉华, 来思平编. 《汉语会话301句 (下)》. – 北京: 北京语言大学出版社, 2008. – 224 页. (Kan Yuyhua, Lau Sipin. “Xitoycha dialogdan 301 ta jumla (3-qism)”. – Pekin: Pekin til va madaniyat universiteti nashriyoti, 2008. – 224 b.).

Tadqiqotning predmetini hozirgi xitoy tilidagi asl harakat yo‘nalishi fe’llarini farqlash mezonlari, ularning tasnifi, leksik-semantik va funksional xususiyatlari hamda modifikatorlarning semantik imkoniyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot uchun to‘plangan materiallarning xususiyatlaridan kelib chiqib, ular semantik, kontekstual, tavsifiy, komponent va statistik tahlil metodlari asosida o‘rganildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

xitoy tilida harakat yo‘nalishi fe’llarini ajratishda beshta mezonning grammatik asoslari – harakat yo‘nalishi fe’li yetakchi fe’ldan keyin *modifikator* vazifasida kelishi, o‘rin holi (方所宾语)ni biriktira olishi, qo‘shma fe’l yasashida ishtirok etishi, qo‘shma fe’l vazifasida o‘rin holi (方所宾语) va to‘ldiruvchini biriktira olishi va bularning qo‘shma fe’l konstruksiyasi tarkibida kelishi aniqlangan;

来 va 去 harakat yo‘nalishi fe’llari semantikasini belgilashda *makon, figura* (*harakatlanayotgan jism*) va *so‘zlovchining* nutqiy vaziyatdagi o‘rnining ta’siri dalillangan;

去 harakat yo‘nalishi fe’li mustaqil fe’l vazifasida kelganda *makon*, modifikator vazifasida esa *so‘zlovchi* nutqiy vaziyatning diqqat markazida bo‘lishi isbotlangan hamda 去 fe’lining 来 ga nisbatan grammatikalashuv darajasi yuqoriligi 去 ning yo‘nalish ma’nosini zaifroq, subyekt nuqtai nazarini kuchli ifodalashi orqali asoslangan;

fe’l-yo‘nalish modellarini hodisalar aspekti orqali modifikatorlarning semantik imkoniyatlari o‘rganilib, xitoy tilida *ko‘chish* → *holatda yuz bergan o‘zgarish* → *amalga oshirish* hodisalariga o‘tishda, ko‘chish elementining zaiflashib, modelning konseptual semantikasi “yo‘l” ma’nosi yo‘qolishi hisobiga kengayib borishi, ko‘chish hodisalarining kontekstual ma’lumotlari (*makon xabari*)ni tushirib qoldirish mumkinligi, yo‘nalish semantikasining modifikator orqali ifodalanishi asoslangan;

20 ta model tahlili asosida modifikatorlarning qo‘llanilishi 位移事件 – *ko‘chishning* 自移事件 – *tashqi ta’sirsiz voqelangan* va 致移事件 – *ta’sir ostida voqelangan* hodisalarida yuqori, 状态变化事件 – *holatda yuz bergan o‘zgarish* va 实现事件 – *amalga oshirish* hodisalarida past ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xitoy tilshunosligida harakat yo‘nalishi fe’llari va ularning yo‘nalish modifikatori (趋向补语) vazifalari doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar yoritildi;

hozirgi xitoy tilidagi harakat yo‘nalishi fe’llari semantikasini belgilashda nutqiy matn xususiyatidan kelib chiqib, *so‘zlovchining* nutqiy vaziyatdagi o‘rni e’tiborga olinishi shartligi asoslab berildi;

来 [lái] va 进 [jìn] guruhi fe’llarining leksik-semantik va funksional xususiyatlari belgilandi hamda ularning ma’no ko‘lami badiiy asarlardagi misollar asosida dalillandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda foydalanilgan manbalar asosida fundamental ilmiy va maxsus adabiyotlarga tayanilgan holda tanlangan tadqiqot usullari, ilmiy tadqiqot natijalarining dissertatsiya nazariy konsepsiyasiga mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan nazariy xulosalar hozirgi kunda xitoy tilshunosligida dolzarb hisoblangan harakat yo‘nalishi fe’llari tasnifi, ularni farqlash mezonlari masalalarida ilmiy ma’lumotlarni kengaytiradi va to‘ldiradi. Shu bilan birga tadqiqot natijasida olingan aniq ilmiy xulosalar xitoy tilshunosligida harakat yo‘nalishi fe’llari va ularning grammatikalashuv masalalarini yanada chuqurroq o‘rganish uchun muhim ilmiy-nazariy ma’lumotlar beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undan “Umumiy tilshunoslik”, “Xitoy tili nazariy grammatikasi”, “Xitoy tili morfologiyasi” kabi o‘quv fanlaridan ma’ruza matnlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkin. Tadqiqot natijalaridan oliy va o‘rta maxsus ta’limda xitoy tilini o‘qitish jarayonida foydalanish yuqori samara beradi hamda lug‘atlar tuzishda harakat yo‘nalishi fe’llarining tarjima variantlarini aniq belgilashda amaliy material bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xitoy tilida harakat yo‘nalishi fe’llarining leksik-semantik va funksional tahlili yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

xitoy tilida harakat yo‘nalishi fe’llarini ajratishda beshta mezonning grammatik asoslari – harakat yo‘nalishi fe’li yetakchi fe’ldan keyin modifikator vazifasida kelishi, o‘rin holi (方所宾语)ni biriktira olishi, qo‘shma fe’l yasashida ishtirok etishi, qo‘shma fe’l vazifasida o‘rin holi (方所宾语) va to‘ldiruvchini biriktira olishi va bularning qo‘shma fe’l konstruksiyasi tarkibida kelishi aniqlanganligi, xitoy tilida harakat yo‘nalishi fe’llari semantikasi va ularning o‘zbekcha tarjimada berilishi muammolariga oid natijalardan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti A-1-180 “Tarjima va madaniyatlararo muloqot masalalariga oid o‘quv qo‘llanmalari yaratish” mavzusidagi ilmiy loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2021-yil 7-apreldagi A-1-180-2021/16-son ma’lumotnomasi). Olingan natijalar “Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari” darsligi va “Madaniyatlararo muloqot” o‘quv qo‘llanmasini tayyorlashga xizmat qilgan;

来 va 去 harakat yo‘nalishi fe’llari semantikasini belgilashda makon, figura (harakatlanayotgan jism) va so‘zlovchining nutqiy vaziyatdagi o‘rnining ta’siri dalillanganligi, 去 harakat yo‘nalishi fe’li mustaqil fe’l vazifasida kelganda makon, modifikator vazifasida esa so‘zlovchi nutqiy vaziyatning diqqat markazida bo‘lishi isbotlangan hamda 去 fe’lining 来 ga nisbatan grammatikalashuv darajasi yuqoriligi 去 ning yo‘nalish ma’nosini zaifroq, subyekt nuqtai nazarini kuchli ifodalashi orqali asoslanganligi, xitoy tilida harakat yo‘nalishi fe’llarining leksik-semantik va funksional xususiyatlari bo‘yicha tahliliy fikrlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DUK “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon” radioeshittirishlari senariylarini tayyorlashda manba sifatida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali davlat unitar korxonasi 2021-yil 9-apreldagi 01-39-21-son ma’lumotnomasi). Natijada xitoy tilidagi mazkur leksik-semantik guruhning lisoniy tabiatini anglashda o‘ziga xos tendensiya va qonuniyatlarga oid ma’lumotlar efirga

uzatilgan eshittirishlarning ilmiy dalillarga boy va ilmiy-ommabop bo'lishini ta'minlagan;

fe'l-yo'nalish modellarini hodisalar aspektida o'rganish orqali modifikatorlarning semantik imkoniyatlari o'rganilib, xitoy tilida ko'chish → holatda yuz bergan o'zgarish → amalga oshirish hodisalariga o'tishda, ko'chish elementining zaiflashib, modelning konseptual semantikasi "yo'l" ma'nosi yo'qolishi hisobiga kengayib borishi, ko'chish hodisalarining kontekstual ma'lumotlari (makon xabari)ni tushirib qoldirish mumkinligi, yo'nalish semantikasining modifikator orqali ifodalanishi asoslanganligi, 20 ta model tahlili asosida modifikatorlarning qo'llanilishi 位移事件 ko'chishning 自移事件 – tashqi ta'sirsiz voqelangan va 致移事件 – ta'sir ostida voqelangan hodisadalarida yuqori, 状态变化事件 – holatda yuz bergan o'zgarish va 实现事件 amalga oshirish hodisalarida past ekanligi aniqlanganligi xususidagi xulosalardan Konfutsiy nomidagi o'zbek-xitoy institutida olib borilayotgan xitoy tili darslari hamda ilmiy yo'nalishlarida harakat yo'nalishi vositalarini qo'llash, to'g'ri tarjima qilish, xitoy tilida harakat yo'nalishi fe'llari ishtirok etgan gaplarda fe'llarning ma'nolarini to'g'ri tushuntirishda qo'llanilgan (Konfutsiy nomidagi o'zbek-xitoy institutining 2021-yil 21-apreldagi 37/21-son ma'lumotnomasi). Natijada xitoy tilidagi harakat yo'nalishi vositalarini to'g'ri qo'llash, to'g'ri tarjima qilish orqali o'quvchilarga oson yetkazish, shuningdek, xitoy tilida harakat yo'nalishi fe'llari ishtirok etgan gaplarda fe'llarning o'z va ko'chma ma'nolarini to'g'ri tushuntirishda nazariy va amaliy jihatdan yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (3 ta respublika, 5 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyot va manbalar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 151 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Birinchi bobda "**Xitoy tilshunosligida harakat yo'nalishi fe'llari tadqiqining nazariy asoslari**" o'rganilgan.

Xitoy tilida fe'l ma'no va sintaktik vazifasiga ko'ra ko'p qirrali: bir vaqtning o'zida ham predikativ vazifani bajarishi, ham grammatik ma'noni ifodalashi – modifikator, ya'ni ko'makchi fe'l bo'lib kelishi mumkin.

Xitoy tilida harakat yo‘nalishi fe‘llarini tasniflashda turlicha yondashuvlar kuzatiladi. Ayrim xitoyshunoslar harakat yo‘nalishi fe‘llarini harakat fe‘llaridan alohida mustaqil guruhga ajratsalar (王媛 Van Yuan, 催达送 Tsuy Dasun, T.P. Zadoenko, Xuan Shuin, O.M. Gotlib), boshqalari harakat fe‘llari guruhi tarkibiga (朱蓓 Chju Bey) kiritadilar. Harakat yo‘nalishi fe‘llari grammatikalashuv asosida yordamchi morfemalarga aylangan¹⁷ va direktiv (yo‘nalish) kategoriyani ifodalashga xizmat qiladigan¹⁸ guruh sifatida ham qaraladi.

T.P. Zadoenko va Xuan Shuinlarning yozishicha, xitoy tilida harakat mazmuni bilan bir qatorda uning yo‘nalishini ham ifodalovchi fe‘llar mavjud¹⁹. O.M. Gotlib xitoy tili fe‘llari tasnifida “yo‘nalish fe‘llari”²⁰, Din Shenshu, Lyuy Shusyan, Li Jun, Sun Desyuan “yo‘nalishni ifodalovchi” fe‘l guruhini ajratishadi²¹. Shuningdek, Van Yuan ham bularni yo‘nalishni ifodalovchi hamda o‘ziga xos qo‘llanish xususiyatlariga ega fe‘l so‘zlar deb ta‘riflaydi²². Chju Bey, yuqoridagilardan farqli ravishda, xitoy tilidagi harakat fe‘llari guruhini quyidagi mezonlar asosida farqlaydi: fe‘l ma‘nosi (qo‘l, oyoq va sh.k.ning harakati); fe‘lning gapda kesim vazifasida birika olish imkoniyati darajasi; fe‘lning to‘ldiruvchi bilan birikuvchi; takror qo‘llanishi va semantik belgisi. Uning fikricha, xitoy tilidagi harakat fe‘llarini harakat yo‘nalishi, fe‘l bog‘lamasi va modal fe‘llar kabi mayda guruhlarga ajratish mumkin²³. Bizning fikrimizcha, harakat yo‘nalishi fe‘llari harakat fe‘llari guruhiga kiradi va bularni bir guruhga birlashtirishda fe‘l semantikasidagi “harakatlanish” semasi asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xitoy tilida harakat yo‘nalishi fe‘llari miqdori masalasi ham to‘la o‘z yechimini topmagan, shu bois tilshunoslikda mazkur masalada turlicha yondashuvlar mavjud.

T.P. Zadoenko va Xuan Shuin harakat yo‘nalishi fe‘llarini ma‘no va grammatik vazifasiga ko‘ra ikki guruhga ajratadilar. Birinchi guruhga makondagi harakatni ifodalovchi 7 ta fe‘l kiritilgan: 进 (*kirmoq*), 出 (*chiqmoq*), 下 (*tushmoq*), 上 (*ko‘tarilmoq*), 回 (*qaytmoq*), 过 (*kesib o‘tmoq*), 起 (*ko‘tarilmoq*). Ikkinchi guruhda so‘zlovchiga qaratilgan harakatni ifodalovchi 2 ta fe‘l – 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) qayd qilinadi²⁴.

Din Shenshu, Lyuy Shusyan, Li Jun, Sun Desyuan va boshqalar²⁵ yuqorida keltirilgan fe‘llarga qo‘shimcha yana ikkita fe‘lni kiritadilar: 上来 (deyktik markazi

¹⁷ Cheng-hui Liu. The grammaticalization of the directional verb lái: A construction grammar approach // *Newest Trends in the Study of Grammaticalization and Lexicalization in Chinese* / Edited by Janet Zhiqun Xing. – Berlin, Boston: De Gruyter Mouton, 2012. – P. 87-88.

¹⁸ 齐沪扬等编. 现代汉语虚词研究综述: 现代汉语虚词研究丛书. – 合肥: 安徽教育出版社, 2002. – 页 152-153.

¹⁹ Задоеико Т.П., Хуан Шуин. Начальный курс китайского языка. Ч.2. – М.: Муравей, 2004. – С. 246.

²⁰ Готлиб О.М. Практическая грамматика современного китайского языка / О.М. Готлиб. – 4-е изд., испр. – М.: Восточная книга, 2012. – С. 115-116.

²¹ Курдюмов В.А. Курс китайского языка. Теоретическая грамматика. – М.:Цитадель-Трейд; Лада, 2005. – С.500.

²² 王媛. 动词的方向性研究与趋向动词教学. 北京语言大学出版社, 2011. – 页 1.

// http://www.chinabooks.ch/catalog/product_info.php?products_id=9626&language=cn

²³ 朱蓓. 现代汉语位移动词研究综述. 牡丹江师范学院学报 (哲社版). 2007. – 页 61.

²⁴ Задоеико Т.П., Хуан Шуин. Начальный курс китайского языка. Ч.2. – М.: Муравей, 2004. – С. 246.

²⁵ 现代汉语语法讲话. / 丁声树、吕叔湘、李荣、孙德宣、管燮初、傅婧、黄盛璋、陈治文等人. – 北京: 商务印书馆出版, 1961. – 228 页.

tomon (yo‘nalish so‘zlovchi turgan tomonga) *ko‘tarilmoq*), 进去 (deyktik markazi tomondan (yo‘nalish so‘zlovchi turgan tomondan) *kirmoq*)²⁶.

A.A. Dragunov xitoy tilidagi fe‘llarni ikki guruhga bo‘lib, ularni harakatni ifodalovchi fe‘llar va harakatni ifodalamaydigan fe‘llarga ajratadi. Harakatni ifodalovchi fe‘llar to‘ldiruvchi bilan birika olish va birika olmaslik xususiyatiga ko‘ra, shartli ravishda o‘timli va o‘timsiz fe‘llarga bo‘linadi. Harakatni ifodalamaydigan fe‘llar hisob so‘zlar, shuningdek, fe‘l affiksi 了 *le* bilan birga qo‘llanilmasligi bilan harakatni ifodalovchi fe‘llardan farq qiladi²⁷. Harakatni ifodalovchi fe‘llar o‘z ichida bir qancha guruhlarga bo‘linadi, ulardan biri harakat yo‘nalishi fe‘llari guruhidir. A.A. Dragunov quyidagi fe‘llarni yo‘nalish fe‘llari guruhiga kiritadi: 上 (*shàng*) *ko‘tarilmoq*, 下 (*xià*) *tushmoq*, 进 (*jìn*) *kirmoq*, 出 (*chū*) *chiqmoq*, 过 (*guò*) *kesib o‘tmoq*, 回 (*huí*) *qaytmoq*, 到 (*dào*) *yetib kelmoq*, 来 (*lái*) *kelmoq*, 去 (*qù*) *bormoq, ketmoq*²⁸.

Tan Aoshuan 27 ta fe‘lni ajratadi, bulardan 11 tasi sodda fe‘llar: 上 (*shàng*), 下 (*xià*), 进 (*jìn*), 出 (*chū*), 回 (*huí*), 过 (*guò*), 起 (*qǐ*), 开 (*kāi*), 到 (*dào*), 来 (*lái*), 去 (*qù*); 16 tasi qo‘shma fe‘llardir: 上来 (*shànglái*), 上去 (*shàngqù*), 下来 (*xiàlái*), 下去 (*xiàqù*), 进来 (*jìnlái*), 进去 (*jìnqù*), 出来 (*chūlái*), 出去 (*chūqù*), 回来 (*huílái*), 回去 (*huíqù*), 过来 (*guòlái*), 过去 (*guòqù*), 起来 (*qǐlái*), 开来 (*kāilái*), 到来 (*dàolái*), 到去 (*dàoqù*)²⁹.

O.M. Gotlib yo‘nalish fe‘llarini mustaqil guruh sifatida tadqiq etadi. Bularni guruhlashda muallif fe‘llarning semantik, valentlik va shakl yasash xususiyatlariga tayangan. Qizig‘i shundaki, yo‘nalish fe‘llariga 进 [*jìn*] guruhi fe‘llari kiritilib, bular tarkibida asosiy harakat yo‘nalishi fe‘llari (来 [*lái*] va 去 [*qù*]) ham keltirilgan: 上 [*shàng*] (*ko‘tarilmoq*), 下 [*xià*] (*tushmoq*), 来 [*lái*] (*kelmoq*), 去 [*qù*] (*ketmoq*), 出 [*chū*] (*chiqmoq*), 回 [*huí*] (*qaytmoq*), 过 [*guò*] (*kesib o‘tmoq*), 起 [*qǐ*] (*ko‘tarilmoq (yuqori tomon harakatlanmoq)*), 到 [*dào*] (*biror joyga yetib bormoq*). Bu guruh fe‘llari “着” suffiksini qabul qilmaydi, takror holda qo‘llanilmaydi, to‘ldiruvchini boshqara olmaydi, biroq lokativ kompliment bilan kela oladi; suffikslarga o‘xshab turli modifikatsiya va natija ma’nolarini ifodalaydi. Masalan, 跑来 (*yugurib kelmoq*), 送去 (*yubormoq*), 坐下 (*o‘tirmoq*), 站起来 (*o‘rnidan turmoq*), 说下去 (*gapirishda davom etmoq*), 看出来 (*ko‘rib bilmoq*), 想起来 (*eslamoq*), 拿回去 (*olib qaytib ketmoq*), 挂上来 (*osmoq, ilmoq*), 搬出去 (*ko‘chmoq*)³⁰.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xitoy tilidagi harakat yo‘nalishi fe‘llarining miqdori bahsli – 8 tadan 27 tagacha fe‘l ajratiladi: 8 ta (Li Lindin), 9 ta (T.P. Zadoyenko, Xuan Shuin, A.A. Dragunov, O.M. Gotlib), 10 ta (Djan Djigun, Xu Yuysu, Na Fui, Gao Genshen, Ma Shaoin), 11 ta (Din Shenshu, Lyuy Shusyan, Li

²⁶ Курдюмов В.А. Курс китайского языка. Теоретическая грамматика. – М.:Цитадель-Трейд; Лада, 2005. – С.500.

²⁷ Драгунов А.А. Исследования по грамматике современного китайского языка. Ч.1. – М.: Ленинград, 1952. – С. 113-127.

²⁸ Ko‘rsatilgan kitob. – B. 121.

²⁹ Тань Аошуан. Проблема скрытой грамматики: Синтаксис, семантика и прагматика языка изолирующего строя (на материале китайского языка). – М.: Языки славянской культуры, 2002. – С. 242.

³⁰ Готлиб О.М. Практическая грамматика современного китайского языка / О.М. Готлиб. – 4-е изд., испр. – М.: Восточная книга, 2012. – С.115.

Jun, Sun Desyuan, Lyuy Shusyan va Lyuy Yuexua), 27 ta (Tan Aoshuan). Bunday tafovut yo‘nalish ma‘nosili fe‘l sifatida tanlangan yangi leksik birliklar yoki yo‘nalish modifikatorlari ishtirokida yasalgan qo‘shma fe‘llar hisobiga yuzaga kelgan.

Sing Cheng Ji fe‘llarni harakat yo‘nalishi fe‘llari guruhiga ajratishda fe‘l semantikasi bilan bir qatorda uning grammatik xususiyatlariga ham tayanadi. Muallif fe‘llarni harakat yo‘nalishi fe‘llari guruhiga kiritishning beshta shartini keltiradi:

1. Harakat yo‘nalishi fe‘li yetakchi fe‘ldan keyin yo‘nalish modifikatori vazifasida kela oladi. Masalan: yetakchi fe‘l + 来/去 (跑来 *yugurib kelmoq*); yetakchi fe‘l + *jin* guruhi fe‘li (爬上 *yuqoriga ko‘tarilmoq, ko‘tarilmoq*); yetakchi fe‘l + *jin* guruhi fe‘li + 来/去 (走进来 *yurib kirib kelmoq*).

2. Fe‘l qo‘shma harakat yo‘nalishi fe‘llarini hosil qilishda ishtirok etadi. Masalan: *jin* guruhi fe‘li + 来/去 (回来 *qaytib kelmoq*).

3. Fe‘l o‘rin holini biriktira oladi (xitoy tilida o‘rin to‘ldiruvchisi (方所宾语) vazifasida keladigan so‘zlar o‘zbek tilshunosligida o‘rin holiga to‘g‘ri keladi). Masalan: harakat yo‘nalishi fe‘li + o‘rin holi (来天津 *Tianjinga kelmoq*).

4. Qo‘shma fe‘l yasalişida ishtirok etadi va o‘rin holini (方所宾语) biriktira oladi; bunda hol yetakchi fe‘ldan so‘ng qo‘yilishi ham mumkin.

Masalan: yetakchi fe‘l + o‘rin holi + 来/去 (回家去 *uyga qaytib ketmoq*); yetakchi fe‘l + *jin* guruhi fe‘li + o‘rin holi (走出办公室 *ofisdan (yurib) chiqmoq*).

5. Qo‘shma fe‘l (uch tarkibli) yasalişida ishtirok etadi va to‘ldiruvchini biriktira oladi; bunda to‘ldiruvchi qo‘shma fe‘l konstruksiyasi tarkibida kelishi mumkin³¹. Masalan: yetakchi fe‘l + *jin* guruhi fe‘li + 来/去 + to‘ldiruvchi (钓上来一条鲤鱼 *sazan tutmoq*); yetakchi fe‘l + *jin* guruhi fe‘li + to‘ldiruvchi + 来/去 (唱起歌来 *qo‘shiq kuylay boshlamoq*); yetakchi fe‘l + to‘ldiruvchi + *jin* guruhi fe‘li + 来/去 (拿了那茶壶进去 *choynakni olib kirib ketmoq*).

Asosiy ikki shartga (1, 2) quyidagi harakat yo‘nalishi fe‘llari to‘g‘ri keladi: 来 (*kelmoq*), 去 (*ketmoq*), 上 (*ko‘tarilmoq*), 下 (*tushmoq*), 进 (*kirmoq*), 出 (*chiqmoq*), 回 (*qaytmoq*), 过 (*kesib o‘tmoq*), 起 (*ko‘tarilmoq*), 开 (*ajralmoq*). Bularndan harakat yo‘nalishi fe‘llarini belgilashdagi beshta shartga muvofiqlari quyidagi sakkizta fe‘ldir: 来 (*kelmoq*), 去 (*ketmoq*), 上 (*ko‘tarilmoq*), 下 (*tushmoq*), 进 (*kirmoq*), 出 (*chiqmoq*), 回 (*qaytmoq*), 过 (*kesib o‘tmoq*). Shuni aytish kerakki, xitoy tilshunosligida ko‘rsatilgan 8 ta fe‘l barcha mutaxassislarining asarlarida harakat yo‘nalishi fe‘llari tarkibida qayd qilingan. Bu esa xitoy tilida harakat yo‘nalishi fe‘llarini belgilashda Sing Cheng Ji taklif etgan beshta mezonning asosli ekanini tasdiqlaydi. Sing Cheng Ji ta‘biri bilan aytganda, bular – 典型趋向动词 *asl harakat yo‘nalishi fe‘llari*, faqat ikki shartga to‘g‘ri kelgan 起 (*ko‘tarilmoq*) va 开 (*ajralmoq*) esa 准趋向动词 *nisbiy harakat yo‘nalishi fe‘llaridir*.

Xitoy tilidagi harakat yo‘nalishi fe‘llari struktur jihatdan sodda va qo‘shma, leksik-semantik jihatdan 来 *lái* (1-guruh), 进 *jìn* (2-guruh) va 1- va 2- guruh fe‘llari

³¹ 幸承姬. 汉语趋向动词系统. // 汉语学报. – 台湾, 2000. – 1 期. – 页 102-103.

birikuvidan iborat qo‘shma (3-guruh) harakat yo‘nalishi fe‘llariga ajratiladi. Harakat yo‘nalishi fe‘llari guruhlari jadvalda quyidagicha umumlashtirildi:

1- jadval

| | | | | | | | | |
|--------------------|----------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|-------------|--------------|
| 1-guruh 2-guruh | 上 shàng | 下 xià | 进 jìn | 出 chū | 回 huí | 过 guò | 起 qǐ | 开 kāi |
| | 3-guruh | | | | | | | |
| 来 lái | 上来 shànglái | 下来 xiàlái | 进来 jìnlái | 出来 chūlái | 回来 huílái | 过来 guòlái | 起来 qǐlái | 开来 kāilái |
| 去 qù | 上去 shàngqù | 下去 xiàqù | 进去 jìnqù | 出去 chūqù | 回去 huíqu | 过去 guòqù | 起去 qǐqù | 开去 kāiqù |

Harakat yo‘nalishi fe‘llarini harakatning boshlang‘ich yoki oxirgi nuqtaga yo‘naltirilganlik ma‘nosiga ko‘ra makondan uzoqlashish va makonga yaqinlashish (yetib kelish)ni bildiruvchi fe‘llarga ajratish mumkin. Uzoqlashishni bildiruvchi fe‘llarga 起 [qǐ] – makondan uzilib (ko‘tarilib) yuqoriga yo‘nalgan harakat; 开 [kāi] – makondan turli tomonlarga yo‘nalgan (ajralib ketgan) harakat; 下 [xià] – makon tomondan pastga yo‘nalgan harakat; 出 [chū] – makon ichkarisidan yo‘nalgan harakat; 去 [qù] – so‘zlovchi turgan makondan yo‘nalgan harakat kiradi. Yaqinlashishni bildiruvchi fe‘llar 进 [jìn] – makon ichkarisiga yo‘nalgan harakat; 上 [shàng] – makon tomon yuqoriga yo‘nalgan harakat; 过 [guò] – makonni chetlab o‘tgan harakat; 回 [huí] – makon tomon ortga yo‘nalgan harakat; 来 [lái] – so‘zlovchi turgan makonga yo‘nalgan harakat fe‘llarini o‘z ichiga oladi.

Xitoy tilida harakat yo‘nalishi fe‘llari gapda mustaqil ma‘noga ega fe‘l-kesim vazifasida keladi. Bu mustaqil fe‘llar harakatni ifodalovchi yetakchi fe‘lga birikib ko‘makchi fe‘l vazifasida ham qo‘llana oladi. Bunday leksik birliklarni xitoy tilida qo‘shma yoki ikki bo‘g‘inli fe‘llar deyiladi. Bular, o‘z navbatida, harakat fe‘llariga birikib, ko‘makchi fe‘l sifatida yo‘nalish ma‘nosini ifodalaydi³².

Li Szinsi, Chjan Chjigun, V.I. Gorelov harakat yo‘nalishi fe‘llarini ko‘makchi fe‘l deb qayd etganlar. Li Szinsining fikricha, gapda yetakchi fe‘lga nisbatan harakat yo‘nalishi fe‘llari prepozitiv yoki postpozitiv joylashadi³³. Chjan Chjigun bu fe‘llarni boshqa fe‘llardan oldin yoki keyin kelib, yordamchi element vazifasidagi alohida guruh so‘zlaridir, deb hisoblaydi³⁴. V.I. Gorelov xitoy tili fe‘llarini mustaqil va ko‘makchi fe‘llarga ajratib, harakat yo‘nalishi fe‘llarini ikkinchi guruhga kiritadi³⁵.

Harakat yo‘nalishi fe‘llari ko‘makchi fe‘l bo‘lib kelganda, 趋向补语 *qūxiàng bǔyǔ* (so‘zma-so‘z tarjima: 趋向 *yo‘nalish*, 补语 *to‘ldirish, to‘liqlash*) vazifasini bajaradi. Xitoy tili grammatikasida bu bo‘lak *yo‘naltiruvchi qo‘shimcha bo‘lak*,

³² Шахаева А.А. Типология глаголов направления движения в разноструктурных языках (на материале бурятского и китайского языков): Дис. ... канд. филол. наук. – Улан-Удэ: БГУ, 2014. – С. 29.

³³ 黎锦熙. 新著国语文法. –北京: 商务印书馆出版, 1924. – 页 140-147.

³⁴ 张志公. 汉语语法常识. 中国青年出版社 1953. – 页 169.

³⁵ Горелов В.И. Теоретическая грамматика китайского языка / В.И. Горелов. – М.: Просвещение, 1989. – С. 52.

*modifikator*³⁶, *oriyentatsion modifikator* yoki *yo‘nalish morfemasi*³⁷, *qo‘shimcha element*³⁸, *yo‘nalish to‘ldiruvchisi*³⁹, *suffiks*⁴⁰ deb ataladi. 趋向补语 *qūxiàng bǔyǔ* aksariyat xitoyshunoslar tomonidan *modifikator*⁴¹ termini bilan qo‘llaniladi. Shu bois dissertatsiya ishimizda *modifikator* terminidan foydalanildi. Modifikatorlar xitoylik tadqiqotchilar⁴² tomonidan turlicha tasnif qilinadi. Yo‘nalish modifikatorlari yetakchi fe‘l leksik ma‘nosini to‘ldirishga xizmat qiladi. Uning yo‘nalish, natija va holat ma‘nolari farqlanadi⁴³. Masalan:

(1) 母亲慢慢走下楼来。 *Ona asta-sekin (yuqoridan) tushib keldi.*

(2) 你把刚才说的话写下来。 *Hozir aytganingni yozib qo‘y.*

(3) 下起雨来了。 *Yomg‘ir yog‘a boshladi.*

Ko‘rsatilgan misollarda yo‘nalish modifikatorlari turli ma‘nolarda ishlatilgan. (1) gapda harakatning so‘zlovchiga nisbatan pastga yo‘nalganligi, (2) gapda *yozmoq* harakatining *yozib qo‘ymoq* tarzida harakatning bajarilishi va uning natijasi sifatida holatning yuzaga kelishi, (3) gapda esa ish-harakatning boshlanishini ifodalaydi.

Yo‘nalish modifikatorlari mavzusi rus tilshunosligida tor ma‘noda o‘rganilgan. V.A. Kurdyumov⁴⁴ ularni fe‘l qo‘shimchalari, V.I. Gorelov⁴⁵ yo‘nalish ma‘nosili ko‘makchi fe‘llar deb ataydi. Bunday tafovut xitoy tilining xususiyatlari bilan bog‘liq. Shu o‘rinda alohida qayd etish kerakki, V.I. Gorelovning ishida mazkur ko‘makchi fe‘llar harakatning tugallanganligi va uning natijasiga ishora qilishi qayd qilinadi. Darhaqiqat, xitoycha 昨天我解习题 *Men kecha masala yechdim* jumlasini yo‘nalish modifikatori bilan ishlatilsa, 昨天我解出了习题 *Men kecha (bu) masalani yechib bo‘ldim* tarzida tarjima qilinadi. Ikkinchi gapda yo‘nalish modifikatori harakatning obyekt (masala) ustida to‘la bajarilishi ma‘nosini ifodalaydi.

Ikkinchi bobda “**来 [lái] va 进 [jìn] guruhi fe‘llarining leksik-semantik va funksional xususiyatlari**” tadqiq qilingan.

³⁶ Драгунов А.А. Исследования по грамматике современного китайского языка. Ч.1. – М.: Ленинград, 1952. – 231 с.

³⁷ Тянь Аошуан. Проблемы скрытой грамматики: синтаксис, семантика и прагматика языка изолирующего строя (на примере китайского языка) / Тянь Аошуан. – М.: Языки славянской культуры, 2002. – 896 с.

³⁸ Хаматова А.А. Словообразование современного китайского языка. – М.: Муравей, 2003. – 233 с.

³⁹ Калинин В.Г. Средства выражения значений китайского дополнения направления в русском языке и переводном тексте (сравнительно-сопоставительное статистическое исследование) // Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2016. Том 14, № 1. – С. 12-30.

⁴⁰ Китайский язык / Коротков Н.Н. и др. – М.: Изд-во вост. лит., 1961. – С. 66; Курдюмов В.А. Курс китайского языка. Теоретическая грамматика. – М.: Цитадель-Трейд; Лада, 2005. – С. 576.

⁴¹ Колпачкова Е.Н. Маркирование актантов двухместных предикатов в современном китайском языке: Валентностные классы двухместных предикатов в разноструктурных языках. Сборник статей. – Санкт-Петербург: Институт лингвистических исследований РАН, 2018. – С. 464.

⁴² 现代汉语语法讲话. / 丁声树、吕叔湘、李荣、孙德宣、管燮初、傅婧、黄盛璋、陈治文等人. – 北京: 商务印书馆出版, 1961. – 228 页.; 罗安源. 简明现代汉语语法. – 北京: 中央民族大学出版社, 1996. – 313 页.; 马真. 简明实用汉语语法教程. – 北京: 北京大学出版社, 1997. – 245 页.; 刘月华. 趋向补语通释. – 北京: 北京语言大学出版社, 1998. – 704 页.; 陆俭明. 动词后趋向补语和宾语的位置问题. 中国人民大学. 复印报刊资料. 2002 年 7 月. <http://rdbk1.yilib.cn:6251/Qw/Paper/202679>; 黄伯荣, 廖序东. 现代汉语 (增订四版) 下册. – 北京: 高等教育出版社, 2007. – 261 页.; 房玉清. 实用汉语语法. – 北京: 北京语言大学出版社, 2008. – 513 页.

⁴³ 刘月华, 潘文娉, 故桦. 实用现代汉语语法. – 北京: 商务印书馆, 2013. – 页 546.

⁴⁴ Курдюмов В.А. Курс китайского языка. Теоретическая грамматика. – М.: Цитадель-Трейд; Лада, 2005. – С.576.

⁴⁵ Горелов В.И. Теоретическая грамматика китайского языка. – М.: Просвещение, 1989. – С. 318.

Xitoy tilshunosligida sodda (bir bo'g'inli) harakat yo'nalishi fe'llari barcha tadqiqotlarda ikki guruhga ajratiladi: 来 [lái] guruhi – so'zlovchiga qarab yoki so'zlovchi tomondan bo'ladigan harakatni (来 [lái] va 去 [qù]), 进 [jìn] guruhi esa makondagi harakatni (进 [jìn]; 出 [chū]; 上 [shàng]; 下 [xià]; 回 [huí]; 过 [guò]; 起 [qǐ]; 开 [kāi]) ifodalashga xizmat qiladi.

来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) harakat yo'nalishi fe'llari sodir bo'layotgan harakatga nisbatan so'zlovchining turgan joyiga ishora qiladi. Agar harakat so'zlovchi (yoki obyekt)ga yo'nalgan bo'lsa, 来 (*kelmoq*), aksincha, so'zlovchi (yoki obyekt)dan uzoqlashish ma'nosi ifodalansa, 去 (*ketmoq*) fe'li qo'llaniladi; masalan:

学生们来了。 *O'quvchilar keldi* (harakat so'zlovchiga yo'nalgan – bu yoqqa).

学生们去了。 *O'quvchilar ketdi* (harakat so'zlovchi turgan joydan boshqa tomonga qaratilgan – u yoqqa).

Biroq materiallar tahlili ko'rsatishicha, harakat bayoni so'zlovchi tomondan bo'lishi yoki so'zlovchiga yo'naltirilgan bo'lishi 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) harakat yo'nalishi fe'llarining barcha semantik xususiyatlarini qamrab olmaydi.

来 (*kelmoq*) fe'li makonga yo'nalgan harakatni ifodalaydi, shuningdek, makonning ko'chishi bilan xarakterlanadi:

1. Makon tinglovchining nutq vaqtida turgan joyi bo'ladi: 我在上海, 你等我, 明天我来北京⁴⁶. *Men Shanhaydaman, meni kut, ertaga Pekinga boraman.*

So'zlovchi tinglovchiga bo'lgan hurmatini ifodalash maqsadida o'zi turgan joyga emas, balki tinglovchining turgan joyiga yo'naladi.

2. Makon so'zlovchining harakat tugallangan vaqtida turgan joyi bo'ladi: 你明天来学校?⁴⁷ *Ertaga sen maktabga kelasanmi?* (nutq momentida so'zlovchi maktabda emas, ammo tinglovchi ertaga maktabga kelgan vaqtda, so'zlovchining maktabda bo'lishi aniq.)

3. Makon so'zlovchining harakat tugallangan vaqtida doimiy turgan joyi bo'ladi: 他明天来北京大学, 很遗憾明天我们都不在⁴⁸. *U ertaga Pekin universitetiga keladi, afsuski biz ertaga bo'lmaymiz.*

Doimiy turgan joy nafaqat so'zlovchining yashash manzili, balki ish joyi yoki tug'ilgan joyi, so'zlovchi uchun muhim har qanday joy bo'lishi mumkin. Shuningdek, so'zlovchining shaxsi (1, 2, 3) 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) fe'llari yo'nalishiga ta'sir qiladi. Lyu Yuexuaning⁴⁹ fikricha, gapda eganing qaysi shaxsda kelishiga ko'ra 来 va 去 fe'llarining makoni o'zgarishi mumkin.

1. Voqea bayonida so'zlovchi yoki 1- shaxs ishtirok etsa, makon sifatida so'zlovchi yoki 1- shaxs turgan joy belgilanadi: 喂, 星期天你能回来吗⁵⁰? *Allo, yakshanba kuni sen kela olasanmi?* (makon – “men” turgan joy).

⁴⁶ <https://books.google.co.uz/books?id=GOnFDwAAQBAJ&pg=PT336&lpg=PT336&dq#v=onepage&q&f=false>

⁴⁷ <https://books.google.co.uz/books?id=GOnFDwAAQBAJ&pg=PT336&lpg=PT336&dq#v=onepage&q&f=false>

⁴⁸ <https://books.google.co.uz/books?id=GOnFDwAAQBAJ&pg=PT336&lpg=PT336&dq#v=onepage&q&f=false>

⁴⁹ Лю Юехуа. Некоторые вопросы о направительных дополнительных членах lai и qu // Преподавание и исследование языков. – М., 1980. Вып. 3. – С. 36-39.

⁵⁰ <https://www.chinanews.com.cn/lxsh/news/2010/06-03/2321615.shtml>

2. Voqea bayonida 3- shaxs ishtirok etsa, so‘zlovchi uchun bayon qilinayotgan shaxs turgan joy makon sifatida olinadi: ...欧阳海收了重伤。...车上的人都非常快下了车，向欧阳海跑来⁵¹。...*Ou Yangxay og‘ir jarohatlandi. ...Odamlar mashinadan tushib, Ou Yangxay tomon yugurib kelishdi* (makon – bayon qilinayotgan shaxs Ou Yang-xayning turgan joyi).

3. Voqea bayonida 3- shaxs ishtirok etsa, so‘zlovchi uchun bayon qilinayotgan joy makon sifatida olinadi: 会场里也坐了不少人，还是不断有人进来⁵²。Anjuman zalida ko‘p odam o‘tiribdi, ammo odamlar hali ham to‘xtovsiz kirib kelishmoqda (makon – anjuman zali).

Quyida 去 (*ketmoq*) fe‘lining ikki xil vaziyatda qo‘llanilishini ko‘rib chiqamiz.

1- vaziyat (bu vaziyatda 去 (*ketmoq*) fe‘lini 去₁ deb belgilaymiz): makonga yo‘nalgan harakat; bunda so‘zlovchi vaziyatni chetdan kuzatuvchi sifatida yuzaga chiqadi, masalan: 女孩向妈妈跑去⁵³。Qizaloq onasi tomon yugurib ketdi.

Keltirilgan gapda so‘zlovchi sodir bo‘lgan harakatni fakt sifatida qayd qiladi. So‘zlovchi subyekt tomonidan sodir etilgan harakat kuzatuvchi haqida xabar bermoqda.

2- vaziyat (bu vaziyatda 去 (*ketmoq*) fe‘lini 去₂ deb belgilaymiz): makondan yo‘nalgan bo‘lib, bunda so‘zlovchi bevosita vaziyat ishtirokchisi bo‘ladi, masalan: 他去三天了⁵⁴。U [mening oldimdan] ketganiga uch kun bo‘ldi.

Mazkur gapda makon subyektiv aniq bo‘lib, bu – so‘zlovchi [men].

1- vaziyatda 去₁ fe‘li qo‘llanilganda, harakat yo‘nalgan makon obyektiv, ya‘ni aniq ifodalangan (*ona* tomonga yo‘nalgan). Mazkur holatda so‘zlovchi chetdan kuzatuvchi bo‘lib, uning turgan joyi makon bilan mos kelmaydi. 2- vaziyatda 去₂ fe‘li qo‘llanilganda, makon – subyektiv, ya‘ni so‘zlovchi shaxs (harakat so‘zlovchi tomondan boshqa tomonga yo‘nalgan), so‘zlovchi vaziyat ichida va uning bevosita ishtirokchisidir.

Xitoy tilidagi asosiy harakat yo‘nalishini ifodalovchi 来 (*kelmoq*) va 去₁ (*ketmoq*) fe‘llarining semantikasidagi farq harakat yo‘naltirilgan joy yoki harakat yo‘nalishi semantikasida emas, balki xabar (ma‘lumot)ning bayon qilinishida, aniqrog‘i, vaziyat nima (kim) nuqtai nazaridan tavsiflanishidadir. Masalan:

学生朝教室走来。Talaba auditoriya tomon yurib kelyapti.

学生朝教室走去。Talaba auditoriya tomon yurib ketyapti.

Keltirilgan misollarda sodir etilayotgan harakat yo‘nalishi bir xil, harakat makon tomon yo‘nalgan, gaplardagi makon o‘zaro mos – 教室(auditoriya). Semantik nuqtai nazardan bu misollarni ikki jihatdan ko‘rib chiqish mumkin:

1. So‘zlovchi makon bilan bevosita bog‘liq.

So‘zlovchi auditoriyada bo‘lib, subyektning u tomon yo‘nalgan harakati haqida xabar bersa, 来 (*kelmoq*) fe‘li ishlatiladi. Vaziyat so‘zlovchi tomonidan tavsiflanadi va uning o‘zi makon vazifasini bajaradi. So‘zlovchi bunday holatda vaziyat ishtirokchisi sifatida auditoriyada yoki harakat sodir etilayotgan joyda bo‘ladi. So‘zlovchi

⁵¹ <https://www.chinanews.com.cn/lxsh/news/2010/06-03/2321615.shtml>

⁵² <https://www.chinanews.com.cn/lxsh/news/2010/06-03/2321615.shtml>

⁵³ <https://books.google.co.uz/books?id=GOnFDwAAQBAJ&pg=PT336&lpg=PT336&dq#v=onepage&q&f=false>

⁵⁴ <https://www.xuges.com/ddmj/czj/eegn/43.htm>

auditoriyadan tashqarida bo'lsa va subyekt harakatining muayyan joyga (auditoriyaga) yo'nalganligi haqida xabar bersa, 去 (*ketmoq*) fe'li ishlatiladi. So'zlovchi vaziyat ishtirokchisi, biroq u auditoriyadan tashqaridadir.

2. So'zlovchi makonga bog'liq emas, u vaziyatni chetdan kuzatuvchi.

来 (*kelmoq*) fe'li qo'llanilganda xabar markazi – 教室 (auditoriya), ya'ni makon 教室 (auditoriya) ekanligi ta'kidlanmoqda. 去 (*ketmoq*) fe'li qo'llanilganda esa, e'tibor subyekt harakatiga qaratilmoqda, xabar markazi, tabiiyki, 学生 (talaba)dir.

来 (*kelmoq*) va 去₂ (*ketmoq*) harakat yo'nalishi fe'llarining semantikasidagi farq sodir etilayotgan harakat yo'nalishining ifodalanishiga bog'liq. Masalan:

(1) 下午他来了。 *U kunning ikkinchi yarmida keldi [bu yerga/ biznikiga].*

(2) 下午他去了。 *U kunning ikkinchi yarmida ketdi [bu yerdan/ biznikidan].*

Keltirilgan misollarda makon subyektiv anglashilgan – bu so'zlovchi turgan joy [bu yer]. (1) gapda harakat makon tomon yo'nalgan, (2) gapda esa makondan yo'nalgan. Demak, 来 (*kelmoq*) va 去₂ (*ketmoq*) harakat fe'llari qo'llanilganda, makon o'zaro mos (so'zlovchi), tafovut harakatning yo'nalishidadir (makon tomon va makondan).

Demak, xitoy tilidagi asosiy harakat yo'nalishi fe'llari semantikasi so'zlovchi turgan joyga yoki so'zlovchi turgan joydan yo'nalgan harakatni ko'rsatish bilan cheklanmaydi. Bu fe'llarning ma'nosini tavsiflashda ular qo'llanilayotgan vaziyatni inobatga olish kerak. Vaziyat makonga nisbatan so'zlovchining o'rni, so'zlovchining turgan joyi (ichida yoki tashqarida), so'zlovchining ish-harakat jarayonida ishtirok etishi yoki etmasligiga ko'ra farqlanadi.

来 [lái] va 去 [qù] fe'llari ko'p ma'noli va gapda mustaqil fe'l, modifikator hamda yordamchi so'z vazifalarida qo'llaniladi. Tadqiqot ishimizda 来 [lái] ning mustaqil fe'l vazifasida *ot (o'rin, payt) + 来 [lai] + ot (harakat subyekt); ot (harakat subyekt) + 来 [lai] + ot (harakat obyekt); ot (harakat subyekt) + 来 [lai] + ot (o'rin); 来 [lái] + ot; 来 [lái] + fe'l; fe'l (maqsad) + 来 [lái]; 来 [lái] + 成 [chéng] / 得/不了 [dé/bù liǎo]* modellari va 去 [qù] ning mustaqil fe'l vazifasida *ot (o'rin-joy, vaqt) + 去 [qù] + ot (harakat subyekt); ot (harakat subyekt) + 去 [qù] + ot (harakat obyekt); ot (harakat subyekt) + 去 [qù] + ot (o'rin-joy); 去 [qù] + fe'l; fe'l + 去 [qù]; 去 [qù] // 成 [chéng]* modellari aniqlandi.

进 [jìn] guruhi (进 [jìn], 出 [chū], 下 [xià], 上 [shàng], 回 [huí], 过 [guò]) fe'llarining semantikasi va funksional tahlili bularning ko'chma ma'nolarida ham yo'nalish ma'nosining saqlanib qolganini ko'rsatdi. Masalan, 下 [xià] fe'li *makon tomon quyiga yo'nalgan harakat* ma'nosini ifodalaydi.

下楼梯。 (BKRS, j.2, b.719) *Zinadan (pastga) tushmoq*; 下飞机。 (BKRS, j.2, b.719) *Samolyotdan (pastga) tushmoq*.

下 [xià] fe'li ko'chma ma'noda yashirin harakatni ifodalaydi. Uning quyiga yo'nalgan harakat ma'nosi ba'zi ko'chma ma'nolarda saqlanib qolgan.

1. *Qor yoki yomg'irning yog'ishi, havo haroratining pasayishi* kabi ma'nolari o'zbek tilida *yog'moq, pasaymoq* fe'llari yordamida ifodalanadi: 雪不下了。 *Qor yo'gishdan to'xtadi*; 下了两天雨。 *Ikki kun davomida yomg'ir yog'di*.

2. 下 [xià] fe'lining (nimanidir) ko'rishga bormoq, qayergadir yo'nalmoq, kelmoq ma'nolari quyidagicha ifodalanadi: 作家下厂。Yozuvchi zavodga **keldi**. 许多作家下乡体验生活⁵⁵。Ko'plab yozuvchilar qishloqqa (hayotiy) tajriba orttirish uchun **borishadi**...

3. Ketmoq, bo'shamoq ma'nolari, masalan, ishdan bo'shamoq, tark etmoq: 下了课了。(BKRS, j.2, b.719) Dars **tugadi** (o'quvchilar qo'yib yuborildi). 他昨天下了活。U kecha ishdan **bo'shadi**.

4. 下 [xià] fe'lining meva uzmoq ko'chma ma'nosi quyidagicha ifodalanadi: 新下树的果子。Daraxtdan yangi **uzilgan mevalar**.

5. Kimdandir yoki nimadandir yomonroq (pastroq) bo'lmoq, kimgadir bo'ysunmoq, yon bermoq ma'nolari: 不下于此。Bundan **yomoni bo'lmaydi**. 相持不下。Tortishuvda bir-biriga **yon bermaslik**. 下一等。Bir pog'ona **past bo'lish**.

6. 下 [xià] fe'lining taslim bo'lmoq, tan bermoq ma'nolari: 原人闻之乃下。Yuan shahri himoyachilari bu haqda xabar topib, **taslim bo'lishdi**.

Ko'rinadiki, 下 [xià] fe'lining yog'moq, pasaymoq (ob-havo); ko'rishga bormoq, yo'nalmoq; ketmoq, bo'shamoq; uzmoq; bo'ysunmoq, yon bermoq; taslim bo'lmoq, tan bermoq kabi ko'chma ma'nolari mavjud. Ushbu ma'nolarda harakatning qanday vaziyatda va qayerda sodir etilayotganiga ko'ra 下 [xià] fe'lining quyiga yo'nalgan harakat ma'nosi saqlanib qolingan.

Uchinchi bobda “**来 [lái] va 去 [qù] harakat yo'nalishi modifikatorlarining fe'l-yo'nalish modellari kesimida funksional tahlili**” amalga oshirilgan.

Xitoy tilida yo'nalish modifikatorlari gapda o'zidan oldin kelayotgan fe'l bilan birikib, fe'l-yo'nalish modelini hosil qiladi. Biroq yo'nalish modifikatorlari va fe'l o'rtasidagi munosabat ham murakkab tizimga ega. Modifikator semantik jihatdan o'ziga mos fe'l bilan qo'llanilishi kerak, aks holda mantiqiy nomutanosiblik yuzaga kelishi mumkin. Sababi, xitoy tili yo'nalish modifikatorlari aniq morfologik shaklga ega emas.

Shuni aytish kerakki, xitoylik tadqiqotchilarning ishlarida yo'nalish kategoriya sifatida ko'chish, holat va vaqt yo'nalishlarini qamrab oladi⁵⁶. Quyida 20 ta fe'l-yo'nalish modeli 位移事件 – ko'chish, 状态变化事件 – holatda yuz bergan o'zgarish, 实现事件 – amalga oshirish hodisalari aspektida o'rganildi. Materiallar tahlili ko'chish hodisasini (位移事件) ikki turga: tashqi ta'sirsiz voqelangan (自移事件) va ta'sir ostida voqelangan (致移事件) ko'chishni ajratish zaruriyatini ko'rsatdi. Har ikki holatda “fe'l+来” modeli asosidagi ko'chish so'zlovchi (kuzatuvchi subyekt) mavjud bo'lgan nuqtaga qarab bo'ladi.

进 [jìn] guruhi harakat yo'nalishi fe'li + 来 modeli (自移事件 *tashqi ta'sirsiz voqelangan hodisa*)da 来 yo'nalish modifikatori bir bo'g'inli yo'nalish fe'llari (回, 过, 上, 下, 进, 出, 起 va 到) bilan birga ishlatiladi. Bu turdagi fe'l-yo'nalish modeli

⁵⁵ Национальный корпус китайского языка [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://ccl.pku.edu.cn:8080/ccl_corpus/search.

⁵⁶ 王宜广, 宫领强. 由意义到形式: 汉语动趋式的功能转向. – 上海: 上海世界图书出版公司, 2017. – 190 页.

tuzilma tilda ko‘p kuzatiladi. 进 [jìn] *guruhi harakat yo‘nalishi fe’li* + 来 modeli ko‘chish hodisasiga xos tipik leksikalashuv sxemasi hisoblanadi.

回来的时候从菜地边上的小树林里出来，那才叫万无一失呢。（《地久天长》王小波. 页 93）*Qaytayotganda hovli yonidagi kichik o‘rmonzordan chiqamiz, buni ishonchli desa bo‘ladi (shunda muammo chiqmaydi).*

也许很快就要回来了。（《帕米尔远山的雪》赵光明. 页 29）*Balki tez orada (qaytib) kelib qolar.*

Xitoy tilida ko‘chish hodisasida harakat va yo‘nalish elementlari qo‘shma fe’l orqali ifodalanadi. Masalan, yuqoridagi misollarda 回来 fe’lida 来 modifikatori ham yo‘nalish, ham subyektiv nuqtayi nazar vazifasini bajarmoqda. Ko‘rinadiki, xitoy tilida yo‘nalish ma‘nosi alohida sintaktik o‘ringa ega. 来 modifikatori yordamida so‘zlovchiga nisbatan subyektning ko‘chishi ifodalanadi.

其实牛只要看见这边山上有人，自然就不会(这边)过来。（《地久天长》王小波. 页 103）*Aslida chorvalar (mol, sigir) bu tomondagi tog‘da birovni ko‘rsa, tabiiyki, bu yerga yaqin yo‘lamaydi*

她就(从窗台)下来坐在床上看。（《地久天长》王小波. 页 93）*U darhol deraza tokchasidan tushib krovatga o‘tirib qaradi.*

我们回来(宿舍)时天还很亮呢。（《地久天长》王小波. 页 98）*Biz yotoqxonaga qaytib kelganimizda kun hali yorug‘ edi.*

Misollardan ko‘rinadiki, xitoy tilida makon yashirin bo‘lib, u matn xabari asosida aniqlanadi. Shuni aytish kerakki, xitoy tilida ham makonni ajratib ko‘rsatish uchun “从-dan”, “向-ga” va “朝-ga tomon” kabi old ko‘makchilardan foydalaniladi. Ammo ortiqchalikdan qochib, makon haqidagi ma‘lumot odatda ajratilmaydi, matnda yashiringan bo‘ladi.

Harakat fe’li + 来 modeli (致移事件 *ta’sir ostida voqelangan hodisa*). Ko‘chish so‘zlovchi tomon tashqi kuch ta’sirida amalga oshadi; 来 yo‘nalish modifikatori, odatda, obyektli fe’llar bilan birga keladi. 来 modifikatori 拉 *tortmoq*, 取 *olmoq*, 拽 *o‘ziga tortmoq* va shu kabi fe’llar bilan qo‘llanib, kuzativ munosabatni yuzaga keltiradi, ya’ni jismning ko‘chishi so‘zlovchi tomonga tashqi kuch ta’sirida amalga oshadi. Masalan:

快拿来我看看。（《地久天长》王小波. 页 92）*Tezroq olib kel, men bir ko‘ray.*

我们拉来一头顶壮的水牛，驾上一套拖板。（《地久天长》王小波. 页 101）*Biz bir baquvvat buqani sudrab olib keldik, (uni) aravaga qo‘shdik.*

洗脸水也打来了。（《地久天长》王小波. 页 108）*Yuz yuvish uchun suv ham keltirilgan.*

它将带来灾难，还是进步？（《最后的“陶”》王蒙. 页 378）*Bu ofat keltiradimi yoki omad?*

Fe’l+来 modeli (状态变化事件 *holatda yuz bergan o‘zgarish hodisasi*). Fe’l+来 modeli orqali biror narsaga egalik huquqining o‘zgarishini ta’kidlash, ya’ni biror shaxs mulkining boshqa birov mulkiga o‘tishi (ya’ni ko‘chishi) ifodalanadi. Bunda egalikni

o'zgartiradigan narsa aniq, real yoki mavhum, virtual (xayoliy) bo'lishi mumkin. Masalan:

赢来的钱，总是被她小心地收起来，藏着。（《母亲》王安忆. 页 146）

Yutib olgan pullarini u hamisha ehtiyotkorlik bilan berkitib yashirardi.

回到乡里用了几天时间整理跑来的材料。（《帕米尔远山的雪》赵光明. 页 35）*Qishloqqa qaytgach kelgan (to'plangan) materiallarni saralash uchun bir necha kun sarf qildik.*

我把从爱人那里听来的消息引出来. . . （《帕米尔远山的雪》赵光明. 页 52）*Men sevgilimdan eshitgan xabarimni aytdim...*

Keltirilgan misollarda *fe'l+*来 modeli gapda aniqlovchi (sifatdosh) vazifasida kelgan. Masalan, 赢来的 *yutib olgan*, 跑来的 *to'plangan*, 听来的 *eshitgan* kabilarda “来” *nimagadir ega bo'lish* ma'nosini bermoqda, makon xabari bo'lgan 钱 *pul*, 材料 *material*, 消息 *xabar* kabilar bilan holat o'zgarishi tuzilmasini ifodalamoqda. Vaziyatning o'zgarishi predmet egasining o'zgarishiga ishora qiladi, ya'ni predmet bir shaxsdan boshqa shaxsga o'tadi. Bunday holatni harakat vaziyati bilan taqqoslaganda gapdagi yo'nalish ma'nosi yo'qoladi yoki yashirin bo'ladi.

Fe'l+来 modeli (实现事件 *amalga oshirish hodisasi*). *Fe'l+*来 *fe'l*-yo'nalish modelida 来 [lái] *fe'li* 说 [shuō], 看[kàn], 听 [tīng], 想 [xiǎng], 算 [suàn] *fe'llaridan* keyin kelib, bu *fe'llarga* qo'shimcha ma'no yuklaydi, subyektning sezgi a'zolari faoliyati orqali fikr, nuqtai nazar yoki tushunchani egallashini, ya'ni hukmni subyektiv idrok etish orqali fikr yoki tushunchani amalga oshirishini bildiradi. *Fe'l* birikmalari gapning ayrim bo'laklari yoki butun gapning mazmuniga so'zlovchining turlicha munosabatini ifodalab, kirish so'z vazifasini bajaradi: 看来 [kàn lái] *ko'rinishidan*, *nazarimda*, 说来 [shuō lái] *gapiradigan bo'lsak*, 想来 [xiǎng lái] *o'ylashimcha*, 听来 [tīng lái] *eshitishimcha*, 算来 [suàn lái] *hisobga olsak* kabi. Bunda 来 [lái] *fe'lini* 起来 [qǐlái] *fe'li* bilan almashtirish mumkin:

他们家看来是个高级知识分子家庭。（《地久天长》王小波. 页 116）

Ko'rinishidan ularning oilasi ziyoli oila (Ularning oilasi ziyolilar oilasidek ko'rinyapti).

Bu modeldagi misollarda 来 [lái] *fe'lining kelmoq* ma'nosi saqlanib qolmagan.

Dissertatsiyada *fe'l+*进来, *fe'l+*出来, *fe'l+*下来, *fe'l+*上来, *fe'l+*回来, *fe'l+*过来 modellari uchala aspektda o'rganildi. Modellar tahlili xitoy tilida ko'chish hodisasini ifodalashda nafaqat harakat jarayoni, balki harakatning aniq yo'nalishiga, shuningdek, so'zlovchining subyektiv nuqtai nazariga ham e'tibor qaratilishini ko'rsatdi. 来 yo'nalish modifikatori yordamida so'zlovchiga nisbatan subyektning ko'chishi hodisasi ifodalanadi.

去 yo'nalish modifikatori “起” dan tashqari barcha yo'nalish *fe'llari* bilan birga qo'llanilib, *fe'l+*去 *fe'l*-yo'nalish modelini hosil qiladi. *Fe'l+*去 qolipi 去 guruhi *fe'l*-yo'nalish modellarining ko'chish hodisasini ifodalashdagi tipik namuna hisoblanadi.

进 [jìn] guruhi harakat yo'nalishi fe'li + 去 modeli (自移事件 *tashqi ta'sirsiz voqelangan hodisa*). 去 yo'nalish modifikatori, odatda, 进 [jìn] guruhidagi 回, 过, 上, 进 va ba'zi harakat *fe'llari* (跑, 游, 飞) bilan birga kelib, 自移事件 ni

ifodalaydi. Masalan: 我看我们还是早点回去为妙。（《地久天长》王小波. 页 94）*Menimcha, ertaroq qaytganimiz ma'qul.* 邢红别下去了，留在外边吧。（《地久天长》王小波. 页 101）*Sin Xun (pastga) tushma, tashqarida qol.* Bu modeldagi 去 guruhi fe'l-yo'nalish modeli 来 guruhidan farq qiladi.

Aksariyat hollarda xitoy tilidagi yo'nalish fe'li + 去 modelini to'liq ifodalash mushkul. Boshqacha aytganda, 去 yo'nalish modifikatori yo'nalish ma'nosini nisbatan zaifroq, subyekt nuqtai nazarini esa kuchliroq ifodalaydi, ya'ni “来” ga qaraganda grammatikalashuv darajasi yuqori.

Ba'zan 去 yo'nalish modifikatori ishtirokidagi gaplarning tarjimasida “去” ni ifodalashga ehtiyoj yo'q, biroq xitoy tilida “去” tushirib qoldirilmaydi:

我想出去一趟，去找我的艾杰克叔叔。（《帕米尔远山的雪》赵光明. 页 59）*Men bir chiqib Ayjieke amakimni izlab kelaman.*

他的门又没插，牛进去就是自己走进去的。（《地久天长》王小波. 页 108）*Uning eshigi yana to'silmaganiga, mollar o'zi kirib qolibdi.*

Xitoy tilida ko'chish hodisasida subyekt nuqtayi nazariga katta ahamiyat beriladi. Masalan:

只有晚上睡觉才回她屋去。（《地久天长》王小波. 页 98）*Faqat kechasi uxlash uchun uning xonasiga qaytib boraman.*

你们应该和我一起回我家去。（《地久天长》王小波. 页 114）*Sizlar men bilan birga uyga borishinglar kerak.*

到天黑才赶牛回去，为的是让它们多吃点草。（《地久天长》王小波. 页 102）*Qorong'i tushgunga qadar chorvalar o't-o'lanlarni ko'proq yeyishlari uchun ortga haydalmadi.*

我想过去，但是又不好意思。（《地久天长》王小波. 页 94）*(Uning yoniga) borgim keldi, lekin borishga xijolat qildim.*

Xitoy tilidagi misollarda makon xabari tushirib qoldirilgan bo'lsa-da, tarjimada xitoycha gapda ishtirok etmagan makon xabari (*ortga, uning yoniga* kabi so'zlar)ning berilishi xitoy tilida fe'l grammatik belgini talab qilmasligini ko'rsatadi.

Xitoy tilida harakatlanish va yo'nalish ma'nolarining ifodalanishida sintaktik komponentlar aniq ajratilgan: harakat ma'nosi asosan 回, 过, 进, 出, 上, 下, 到 kabi harakat yo'nalishi fe'llari bilan ifodalanadi, yo'nalish modifikatori “去” esa so'zlovchidan uzoqlashuvchi obyektning yo'li haqidagi ma'lumotni va subyektiv nuqtai nazarni ifodalaydi.

Harakat fe'li + 去 modeli orqali harakat uslubi, tarzi ifodalanadi, masalan:

早晨的雾气刚刚散去我们就赶着牛到山上去。（《地久天长》王小波. 页 103）*Tonggi tuman endi tarqalishi bilan chorvalarni haydab toqqa chiqdik.*

一群孩子向河边跑去。（《地久天长》王小波. 页 108）*Bir to'da bolalar daryo tomon yugurib ketishdi.*

Xitoy tilida harakat fe'llari asosan bir konseptual kompleks bo'lib, ularning tuzilishi *harakat+uslub* ko'rinishidadir. Xitoy tilida yo'nalish semantikasi yo'nalish modifikatori sifatida olinishi mumkin.

我们赶快下水朝她游去。（《地久天长》王小波. 页 106）*Biz darhol suvga tushdik-da, u tomon suzib bordik.*

大约几分钟后，这个奇怪的东西以闪电般的速度朝远处的群山飞去。（《帕米尔远山的雪》赵光明. 页 19）*Taxminan bir necha daqiqadan so'ng bu g'aroyib narsa chaqmoq tezligida yiroqlardagi tog' tomon uchib ketdi.*

Modeldagi Fe'l 1 harakatlanish bilan bir qatorda harakat uslubi, tarzini ham ifodalaydi (motion +manner/cause)⁵⁷. Fe'l 2 (modifikator) esa yo'nalishni ko'rsatadi.

Harakat fe'li + 去 modeli (致移事件 *ta'sir ostida voqelangan hodisa*). Ba'zi kauzativ ma'noga ega fe'llar hamda 请, 叫, 派 kabi kauzativ nutq fe'llari “去” bilan qo'llanilib, harakat yoki so'z bilan kimnidir yoki biror narsani joyidan siljitishni ifodalaydi, masalan:

吃完了晚饭，他把一些人叫去开预备会。（《地久天长》王小波. 页 96）*Kechki ovqatdan so'ng u ba'zi (odam)larni dastlabki yig'ilishga chaqirdi.*

Fe'l+去 modeli (状态变化事件 *holatda yuz bergan o'zgarish hodisasi*). Holatda yuz bergan o'zgarish hodisasidagi *fe'l+去* modelining yo'nalish ma'nosi zaiflashib, hatto yo'qolishi mumkin. Bu modelda, asosan, biror narsa egasining o'zgarishiga urg'u berilib, “yo'qotish”, “subyektning normal holatdan uzoqlashishi” kabi metaforik ma'nolar ifodalanadi. Masalan:

我们在门前脱成赤膊，洗去身上的泥巴。（《地久天长》王小波. 页 98）*Biz eshik oldida kiyimimizni yechib, ustimizdagi loyni yuvdik.*

她忽然笑了，伸手揩去眼泪。（《地久天长》王小波. 页 107）*U birdan kulib yubordi va qo'lini cho'zib ko'z yoshlarini artidi.*

那一年，他父母都相继死去。（《地久天长》王小波. 页 102）*O'sha yili uning ota-onasi ketma-ket olamdan o'tishdi.*

Xitoy tilida holat o'zgarishi hodisasini ifodalashda shakl o'zgarishi mustaqil sintaktik pozitsiyaga ega, ya'ni u yo'nalish modifikatori bilan qo'llanilib, satellit shaklli (satellite-framed) til tipologiyasini ko'rsatmoqda⁵⁸.

Fe'l+去 modeli (实现事件 *amalga oshirish hodisasi*). *Fe'l+去* modeli 说 [shuō], 看 [kàn], 听 [tīng] kabi fe'llardan keyin kelib, bu fe'llarga qo'shimcha ma'no yuklaydi, ya'ni hukmni subyektiv idrok etish orqali fikr yoki tushunchani amalga oshirishni bildiradi. Bu model adabiy tilda ko'p qo'llaniladi va taxmin yoki muayyan bir jihatga diqqatni qaratishni ifodalaydi (og'zaki nutqda 看上去 [kàn shàngqù], 听上去 [tīng shàngqù] ko'p qo'llaniladi). Masalan: 他看去还是一久不到二十岁的青年 *U ko'rinishidan hali yigirmaga to'lmagan o'smirga o'xshaydi.*

Mazkur bobda, shuningdek, *fe'l+进去*, *fe'l+出去*, *fe'l+下去*, *fe'l+上去*, *fe'l+回去*, *fe'l+过去* fe'l-yo'nalish modellarining xususiyatlari tahlil etilgan.

下来, 下去 qo'shma yo'nalish modifikatorlari fe'ldan tashqari sifat bilan ham birga kela oladi: sifat ifodalayotgan predmet xususiyati yoki holatidagi o'zgarishlarni yo'nalish orqali ifodalashga xizmat qiladi. 下来 – holatdagi o'zgarish, shuningdek,

⁵⁷ Bu haqda qarang. Биликova М.З., Шахаева А.А. Характеристика разносистемных языков с позиций типологии моделей лексикализации Л. Талми (на примере бурятского, китайского и турецкого языков) // Вестник бурятского государственного университета. – С. 23-25.

⁵⁸ Ko'rsatilgan maqola. – B. 24.

biror darajaga yetishishni; 下去 – holatning o‘zgarishda davom etishini ifodalaydi. *Sifat+ qo‘shma YM* modelining “sifat+下来”, “sifat+下去” shakllari predmet ma’lum xususiyatining o‘zgarish jarayoni, holatning davom etishi yoki holatning saqlanib turishini ifodalaydi. Masalan:

灯光又渐渐地黯淡下去。 (《家》巴金. 页 22) *Chiroq nuri yana asta-sekin xiralashdi.*

光顺着受光面的弧度, 均与地稀薄下来。 (《冬天的聚会》王安忆. 页 56) *Nur yorug‘lik tushayotgan yuza bo‘ylab bir tekisda siyraklashmoqda.*

Sifat+qo‘shma YM modelida qo‘shma yo‘nalish modifikatorlari o‘rtasida to‘ldiruvchi qo‘llanilishi mumkin. Bunda model *sifat+YM 1+ to‘ldiruvchi+YM 2* ko‘rinishida bo‘ladi. Masalan, 我有一种不安定的感觉, 我不能静下心来。

(《一个车夫》巴金. 页 14) *Menda bezovtalik hissi bor, tinchlana olmayapman.* (so‘zma-so‘z tarjima: *qalbinni tinchlantira olishimning iloji yo‘q*).

来 [lái] va 去 [qù] yo‘nalish modifikatorlarining fe‘l-yo‘nalish modellari asosidagi funksional tahlili shuni ko‘rsatadiki, xitoy tilida yo‘nalish modifikatorlari fe‘l xususiyatlarini yoritib berishda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

1. Xitoy tilida harakat yo‘nalishi fe‘llari (趋向动词) polifunksional xususiyatga ega: gapda mustaqil fe‘l bo‘lib keladi, shuningdek, qo‘shma fe‘l tarkibida yordamchi (modifikator – 趋向补语) vazifasida qo‘llanib, harakat fe‘llari ma’nosini yo‘nalish o‘ttenkasi bilan ifodalaydi.

2. Xitoy tilidagi harakat yo‘nalishi fe‘llarining miqdoridagi tafovut yo‘nalish ma’nosili fe‘l sifatida tanlangan yangi leksik birliklar yoki yo‘nalish modifikatorlari ishtirokida yasalgan qo‘shma fe‘llar hisobiga yuzaga kelgan. Harakat yo‘nalishi fe‘llarini belgilashning 5 ta mezonini asosida bularni 典型趋向动词 *asl harakat yo‘nalishi fe‘llari* va 准趋向动词 *nisbiy harakat yo‘nalishi fe‘llari* ga ajratish mumkin.

3. Xitoy tilidagi harakat yo‘nalishi fe‘llari struktur jihatdan sodda va qo‘shma, leksik-semantik jihatdan 来 *lái* (1-guruh), 进 *jìn* (2-guruh) va 1- va 2- guruh fe‘llari birikuvidan iborat qo‘shma (3-guruh) harakat yo‘nalishi fe‘llariga ajratiladi. 1-guruh fe‘llari so‘zlovchiga qaratilgan harakat, 2-guruh makondagi harakat va 3-guruh – qo‘shma fe‘llar esa harakat yo‘nalishini makonning turli tomonlariga ko‘ra aniq ifodalaydi.

4. Xitoy lingvistlari tomonidan gap bo‘laklarini ifodalash uchun qabul qilingan terminlarning barqarorligi nisbiy xarakterga ega. Xitoy tilshunosligida harakat yo‘nalishi fe‘llari tadqiqida ularning 趋向补语 *qūxiàng bǔyǔ* “yo‘nalish qo‘shimcha bo‘lak” vazifasi uchun 7 ta termin qo‘llanilib kelingan. Ular ichida *yo‘nalish modifikatori* yagona maqbul termin hisoblanadi. Xitoy tilida yo‘nalish modifikatorlari yetakchi fe‘l leksik ma’nosini to‘ldirishga xizmat qiladi. Uning yo‘nalish, natija va holat ma’nolari farqlanadi. Natija va holat ma’nolari yo‘nalish modifikatorlarining yo‘nalish ma’nosi bilan chambarchas bog‘liq.

5. 来 [lái] va 去 [qù] fe'llari ko'p ma'noli va gapda mustaqil fe'l, yo'nalish modifikatori hamda yordamchi so'z vazifalarida qo'llaniladi. Bularning ma'nolarini yoritishda *makon* va *harakat yo'nalishi* asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Makon subyektiv (so'zlovchi) yoki obyektiv (gapda ko'rsatilgan bo'ladi) aniqlanadi: so'zlovchining turgan joyi makon bilan mos kelmasligi mumkin, shuningdek, so'zlovchining qaysi shaxsda qo'llanilayotgani makonga ta'sir qiladi.

6. Xitoy tilida harakatlanish va yo'nalish ma'nolarining ifodalanishida sintaktik komponentlar aniq ajratilgan: harakat ma'nosi asosan 回, 过, 进, 出, 上, 下 kabi harakat yo'nalishi fe'llari bilan ifodalanadi; 来 yo'nalish modifikatori so'zlovchiga nisbatan subyektning ko'chishi, 去 esa so'zlovchidan uzoqlashuvchi obyektning yo'li haqidagi ma'lumot va subyektiv nuqtai nazarni ifodalaydi.

7. Xitoy tilida yo'nalish modifikatorlari va fe'l o'rtasidagi munosabat murakkab tizimga ega: yo'nalish modifikatorlari faqat semantik jihatdan o'ziga mos fe'l bilan qo'llaniladi. 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) yo'nalish modifikatorlari ham yo'nalish ma'nosini, ham subyekt nuqtayi nazarini ifodalaydi. Shuningdek, xitoy tilida ko'chish hodisasini ifodalashda subyekt nuqtayi nazariga katta e'tibor qaratiladi. Ba'zan makonni ajratib ko'rsatish uchun “从 -dan”, “向 -ga” va “朝 -ga tomon” kabi old ko'makchilardan foydalaniladi, ular yordamida harakatlanayotgan jismning harakat yo'nalishi ko'rsatilib, subyekt nuqtayi nazarining ifodalanishi yanada kuchayadi.

8. Xitoy tilida gapda yo'nalish modifikatorlari tushirib qoldirilmaydi: bularning ishtirokisiz gap mazmunini shakllantirib bo'lmaydi. Yo'nalish modifikatorlari makon bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlari tufayli (aniqrog'i, bildirgan ma'no yo'nalishiga ko'ra) nisbatan yopiq birliklar tizimini hosil qiladi.

9. 20 ta fe'l-yo'nalish modeli tahlili asosida modifikatorlarning qo'llanilishi 位移事件 – *ko'chishning* 自移事件 – *tashqi ta'sirsiz voqelangan* (36%) va 致移事件 – *ta'sir ostida voqelangan* (31%) hodisalarida yuqori, 状态变化事件 – *holatda yuz bergan o'zgarish* (22%) va ayniqsa, 实现事件 – *amalga oshirish* (11%) hodisalarida past ekanligi aniqlandi. Fe'l-yo'nalish modellarini hodisalar aspektida o'rganish yo'nalish modifikatorlarining semantik imkoniyatlarini yoritib berishga xizmat qiladi.

10. Yo'nalish modifikatorlarining fe'l bilan birikuvidan iborat 20 ta modelning tahlili xitoy tili uchun xos quyidagi tipik xususiyatlarni ko'rsatdi:

a) ko'chish hodisasi → holatda yuz bergan o'zgarish hodisasi → amalga oshirish hodisalariga o'tishda, ko'chish elementi zaiflashib, modelning konseptual semantikasi “yo'l” ma'nosining yo'qolishi bilan kengayib boradi;

b) xitoy tilida ko'chish hodisalarining makon xabari tushirib qoldirilishi xitoy tilida fe'l grammatik belgini talab qilmasligini ko'rsatadi;

v) xitoy tilida yo'nalish semantikasi yo'nalish modifikatori sifatida olinishi mumkin.

11. 下来, 下去 qo'shma yo'nalish modifikatorlari sifat bilan birga kela oladi: sifat ifodalayotgan predmet xususiyati yoki holatidagi o'zgarishlarni yo'nalish orqali ifodalashga xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019. Fil/Tar.21.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

МУХАМЕДЖАНОВА ШАХБОРА КАМОЛОВНА

**ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ
ГЛАГОЛОВ НАПРАВЛЕНИЯ ДВИЖЕНИЯ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ**

10.00.05 – Языки и литература народов Азии и Африки

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Ташкент – 2022

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № B2020.2.PhD/Fil.1292.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете востоковедения.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета www.tsuos.uz и Информационно-образовательном портале www.ziyonet.uz.

Научный руководитель: **Каримов Акрамджан Абильевич**
кандидат филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Дадабоев Хамидулла Арипович**
доктор филологических наук, профессор
Исматуллаева Наргиза Расулджановна
доктор философии по филологическим наукам (PhD)

Ведущая организация: **Узбекский государственный университет мировых языков**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2022 г. в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном университете востоковедения по адресу: 100047, г. Ташкент, ул. Шахрисабзская, 16. Тел.: (99871) 233-45-21, факс: (99871) 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета востоковедения (зарегистрирована за № __). Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Шахрисабзская, 16. Тел.: (99871) 233-45-21).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2022 года.

(Протокол реестра рассылки №__ от «__» _____ 2022 года.)

А.М.Маннанов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук, профессор

Р.А.Алимухамедов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук, доцент

Ш.Р.Усманова

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На современном этапе развития мирового языкознания уделяется особое внимание изучению языковой системы и механизма языковой деятельности человека, что связано с факторами такими как личность в качестве носителя языка, его языковое сознание и мышление, менталитет, речевая ситуация, социальная среда, национальная культура. Исследования грамматического строя языка, семантических изменений и прагматических возможностей способствуют появлению новых подходов в изучении глагольных форм в китайском языкознании.

В мировой лингвистике средства выражения направления движения, а именно в китайском языке, не изучались как категория. Более того, не были объектами исследования средства направления движения и их значение в структурном плане. Однако, несмотря на то, что средства направления движения не выделяются в отдельную категорию, существуют исследования по реализации движения в речи. Актуальность исследования представляет и тот факт, что в научных подходах в решении вопросов критериев определения глаголов направления движения, их структуры и семантики, возможностей употребления модификаторов направления в китайском языке нет единства мнений¹. В китайском языке глаголы направления движения составляют важную часть лексики, но в изучении их системы и семантической полноты наблюдается ряд нерешенных вопросов. В частности, из-за узкого охвата классификации глаголов направления движения затруднено понимание языковой природы лексико-семантической группы глаголов китайского языка.

До настоящего времени в китайском языкознании глаголы направления движения китайского языка рассматривались в рамках общих вопросов или в сопоставительном плане. Данное исследование является первой научной работой, посвященной изучению семантических и функциональных признаков глаголов направления движения. Более того, актуальность исследования обоснована необходимостью изучения данной темы в монографическом плане в целях определения лексико-семантических и функциональных особенностей глаголов направления движения, в частности, исследование специфичных тенденций и закономерностей, определение межъязыковых альтернатив, изучение различий и сходств в языке, что позволит показать глубинные видоизменения в глагольных формах.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, отраженных в Указе Президента Республики Узбекистана Указе № УП-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному

¹ 现代汉语语法讲话. / 丁声树、吕叔湘、李荣、孙德宣、管燮初、傅婧、黄盛璋、陈治文等人. – 北京: 商务印书馆出版, 1961. – 228 页; Cheng-hui Liu. The grammaticalization of the directional verb lái: A construction grammar approach // Newest Trends in the Study of Grammaticalization and Lexicalization in Chinese / Edited by Janet Zhiquan Xing. – Berlin, Boston: De Gruyter Mouton, 2012. – P. 87-88; Задоевко Т.П., Хуан Шуин. Начальный курс китайского языка. Ч.2. Изд. 2-е, стер. – М.: Муравей, 2004. – С. 246; Тань Аошун. Проблема скрытой грамматики: Синтаксис, семантика и прагматика языка изолирующего строя (на материале китайского языка). – М.: Языки славянской культуры, 2002. – С. 242.

повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», Указе № УП-6084 от 20 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлении Президента № ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», Постановлении № ПП-4680 от 16 апреля 2020 «О мерах по кардинальному совершенствованию системы подготовки кадров и повышению научного потенциала в области востоковедения», а также других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их осуществления в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-нравственном развитии информатизированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В китайском языкознании глаголы направления движения в различной степени исследованы в работах таких китайских ученых, как Ли Цзинси, Лю Шусян, Ван Ли, Чжан Чжигун, Дин Шэншу, Чжу Деси, Ху Юйшу, Фан Сяо, Син Фуи, Люй Юэхуа². Среди зарубежных лингвистов этой проблемой занимались Т.П. Задоев, Хуан Шуин, В.И. Горелов, С.Ю. Яхонтов, А.А. Драгунов, Тан Аошуань, Гуань Лили, А.А. Шахаева³. В работах вышеприведенных авторов глаголы направления движения именуются как самостоятельные глаголы, вспомогательные глаголы, динамические слова, вспомогательные элементы и суффиксы. Однако в большинстве работ в зависимости от места данных глаголов в предложении выделены их самостоятельные и вспомогательные функции. Кроме того, следует отметить, что в работах китайских лингвистов для обозначения функции вспомогательного глагола используется термин 趋向补语 *qūxiàng bǔyǔ*,

² 黎锦熙. 新著国语法. 北京: 商务印书馆出版, 1924. – 327 页.; 吕叔湘. 中国语法要略. – 北京: 商务印书馆出版, 1982. – 681 页.; 王力. 中国现代语法. – 北京: 中华书局, 1956. – 464 页.; 张志军 Чжан Чжицзюнь. Сопоставительное исследование русского языка с китайским в аспекте аспектуальности // 语言-文化-交际. 国际学术会议论文集. / 主编 王仰正, 王永. – 哈尔滨: 黑龙江人民出版社, 2007. – 415 页 (106-116); 现代汉语语法讲话. / 丁声树、吕叔湘、李荣、孙德宣、管燮初、傅婧、黄盛璋、陈治文等人. – 北京: 商务印书馆出版, 1961. – 228 页.; 株德熙. 语法讲义. – 北京: 商务印书馆出版, 2009. – 页 231; 胡裕树, 范晓. 动词研究. – 开封: 河南大学出版社, 1995. – 422 页.; 邢福义. 现代汉语. – 高等教育出版社, 1993. – 491 页.; 刘月华, 陈贤纯, 张兰欣等. 趋向补语通释. – 北京: 北京语言大学出版社, 1998. – 704 页.

³ Задоев Т.П., Хуан Шуин. Начальный курс китайского языка. Ч.2. – М.: Муравей, 2004; Горелов В.И. Теоретическая грамматика китайского языка / В.И. Горелов. – М.: Просвещение, 1989. – 318 с.; Яхонтов С.Е. Категория глагола в китайском языке. – Ленинград, 1957. – 181 с.; Драгунов А.А. Исследования по грамматике современного китайского языка, т-1. – М.-Ленинград, 1952; Тань Аошуан. Проблема скрытой грамматики: Синтаксис, семантика и прагматика языка изолирующего строя (на материале китайского языка). – М.: Языки славянской культуры, 2002. – 896 с.; Гуань Лили. Глаголы движения в русском и китайском языках. Автореф.дис. ... канд.филол.наук. – Бишкек, 2012. – 22 с.; Шахаева А.А. Типология глаголов направления движения в разнотипных языках (на материале бурятского и китайского языков) – Улан-Удэ, 2014. – 199 с.

а в исследованиях, проведенных до конца XX века, глаголы направления движения изучены в рамках грамматики китайского языка.

Монография Тан Аошуана⁴ занимает важное место среди работ, выполненных в этой области после 2000 г. В работе изучаются основные категории грамматики изолирующего языка на примере китайского, а в главе, посвященной глаголам и категории глаголов, на основе языковых материалов, характерных для разных функциональных стилей, анализируются семантические типы глагольных предикатов и морфем направления и результата. В монографии также даны предложения по решению проблемных вопросов китайской грамматики.

В диссертационных работах Гуань Лили⁵ и Ду Хунцзюня⁶ исследованы глаголы движения русского и китайского языков, а работа А.А. Шахаевой⁷ посвящена исследованию семантики глаголов направления движения бурятского и китайского языков в сопоставительном плане. В перечисленных исследованиях на основе семантики глаголов движения обоснованы типологические сходства и различия между ними. На основе семантики и полифункциональности глаголов А.А. Шахаевой разработаны принципы выделения лексико-семантических групп глаголов направления движения в бурятском и китайском языках.

В узбекском языкознании проведен ряд исследований глаголов, их значения, места в предложении и валентности. В частности, грамматические особенности глаголов в узбекском языке изучены в работах А. Гулямова, С. Муталлибова, А. Ходжиева, А. Сулаймонова, Х. Юсуфходжаевой, М. Содыковой, М. Аламовой⁸, семантические поля глаголов, валентность глаголов состояния, а также семантические и валентные особенности глаголов движения исследованы в докторских диссертациях И. Кучкартаева⁹, Р. Расулова¹⁰, С. Мухамедовой¹¹. В докторской диссертации М. Содиковой семантико-стилистические особенности глаголов изучались в рамках трех

⁴ Тань Аошуан. Проблема скрытой грамматики: Синтаксис, семантика и прагматика языка изолирующего строя (на материале китайского языка). - М.: Языки славянской культуры, 2002. – 896 с.

⁵ Гуань Лили. Глаголы движения в русском и китайском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Бишкек, 2012. – 22 с.

⁶ Ду Хунцзюнь. Система приставочных глаголов движения в русском языке в сопоставлении с китайским языком: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 2010. – 33 с.

